T. G‘AFFOROVA, SH. NURULLAYEVA,
Z. MIRZAHAKIMOVA

# O‘QISH KITOBI

## Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik

To‘rtinchi nashr

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan*

“SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2018

UO‘K 372.41(075)
KBK 83.3O‘zb
G‘ 29

Mas’ul muharrir:
**Nizomiddin Mahmudov,** filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:
**Dilshod Rajab,** O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, bolalar shoiri;
**Zarifa Jumanova**, RTM Boshlang‘ich ta’lim bo‘limi boshlig‘i, f.f.n;
**Fotima Karimova,** Toshkent shahridagi 281-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

## Shartli belgilar:

– savollar

– tez aytish

– topshiriq

– topishmoq

– maqol va hikmatli so‘z

– dars tugadi

– multimedia ilovasi

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.**

G‘ 29 **G‘afforova T.** va boshq.
O‘qish kitobi: 2-sinf uchun darslik / T. G‘afforova, Sh. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova. Mas’ul muharrir N. Mahmudov – T.: “Sharq”, 2018. – 176 b.

**UO‘K: 372.41(075)**
**KBK 83.3O‘zb**

ISBN 978-9943-26-763-3

© T. G‘afforova, Sh. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova.
© “Sharq” NMAK Bosh tahririyati, 2012, 2014, 2016, 2018.

# ONA YURTIM – OLTIN BESHIGIM

## VATANJONIM, VATANIM

Po‘lat Mo‘min

Vatanjonim, vatanim,
Ko‘zim quvnab ko‘rganim.
Istiqboldan kulganim,
O‘zbekiston – gulshanim.

Bahra olib bag‘ringdan,
Ulg‘ayaman mehringdan.
Vatanjonim, vatanim,
O‘zbekiston – gulshanim.

Sen o‘xshaysan onamga,
Maqtay butun olamga.
Vatanjonim, vatanim,
O‘zbekiston – gulshanim.

1. She’r nima haqida ekan?
2. Inson Vatanini nima uchun yaxshi ko‘radi?
3. Vatan kimga o‘xshatilyapti? Nima uchun?

Vatan haqida maqollar ayting.

Zanjir, tandir, anjir.

U yog‘ganda, dala-qir
Kuladi qiqir-qiqir.

## VATAN

Bu so‘z hamma xalqlar uchun aziz. Har bir xalq yashaydigan joy ularning ona Vatanidir. “Vatan” atamasi arabcha so‘z bo‘lib, ona yurt ma’nosini bildiradi. Buyuk shoirimiz Alisher Navoiy “Vatan” tushunchasini ona yurt, tug‘ilib o‘sgan joy ma’nolarida ishlatgan.

Vatan ona kabi yagona, muqaddas. O‘zbekiston – ajdodlarimiz umr kechirgan, biz tug‘ilib, unib-o‘sayotgan diyor. Biz o‘z Vatanimizni sevamiz, u bilan faxrlanamiz. Vatanimizda barcha xalqlar teng huquqli. Yurtimizdan buyuk shoirlar, olimlar va mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ular yurtimiz dovrug‘ini butun dunyoga yoyganlar, jahon ilm-fani va madaniyatiga buyuk hissa qo‘shganlar. Shuning uchun ham xalqimiz qalbida abadiy yashaydi.

Biz Vatanimiz o‘tmishini, xalq ozodligi uchun kurashgan qahramonlarni hech qachon unutmaymiz. Har bir kishi o‘z mehnati bilan Vatan taqdiriga o‘z so‘zini bitadi. Vatanga muhabbat, uni ko‘z qorachig‘idek asrash, bor kuch va iqtidorini uning obodligi yo‘lida sarflash – vatanparvarlik. Vatanni sevuvchi kishi, ana shunday asl fazilatlar egasi bo‘lgan inson vatanparvar deb ataladi.

(Bolalar ensiklopediyasidan)

1. Vatan haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Vatanimiz haqida-chi?
3. Siz Vatan uchun nima qila olasiz?

Vataning tinch – sen tinch.

**Maqol nima?**

Maqollar xalq og‘zaki ijodiga kiradi. Odamlar hayotda ko‘rgan-kechirganlari asosida maqollarni yaratadilar. Maqollar kichik hajmda bo‘lib, pand-nasihat mazmunini ifodalaydi.

# TOSHKENT – O‘ZBEKISTON POYTAXTI

**1**

Uzoq o‘tmishda Toshkent bir qancha mamlakatlarni bir-biri bilan bog‘lagan. Toshkentdan “Buyuk Ipak yo‘li” deb atalgan savdo karvon yo‘li o‘tgan. Unga “Sharq darvozasi” nomi bejiz berilmagan. Ko‘plab taniqli sayyohlar, olimlar, yozuvchilar va shoirlar O‘zbekistonning bosh shahrini juda chiroyli ta’riflaganlar. Shuning uchun ham Toshkent “Do‘stlik shahri”, “Non shahri”, “Bog‘lar shahri”, “Osiyoning yuragi” nomlari bilan mashhurdir.

**2**

Toshkent yam-yashil daraxtlarga burkangan so‘lim va fusunkor bog‘lari bilan odamlarni o‘ziga jalb qiladi. Shaharda juda

ko‘plab madaniyat va istirohat bog‘lari mavjud. Toshkentliklarning sevimli maskaniga aylangan “Ulug‘bek”, “G‘afur G‘ulom”, “Furqat”, “Zafar Diyor” kabi bog‘lardagi turli daraxtlar, gul-u chamanzorlar bahridilingizni ochadi.

Poytaxtimizdagi muzeylarda tarixiy, adabiy, musiqiy meroslarimiz avaylab saqlanmoqda.

**3**

Toshkent metrosi haqiqiy me’morchilik mo‘jizasi va yodgorligidir. Bugun poytaxtimiz metrosi uzunligi 38 kilometrlik yerosti yo‘llari va 28 ta go‘zal bekatlardan iborat.

Tog‘ etagida joylashgan Toshkentning atrofidan bir nechta tog‘ daryolari oqib o‘tadi. Ushbu daryolar shaharliklarni Chimyon tog‘ining qorli cho‘qqilaridan oqib kelayotgan toza va muzday suv bilan ta’minlaydi.

(“Toshkent va toshkentliklar” kitobidan qisqartirib olindi)

1. Matndan Toshkent haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Toshkentdagi bog‘lar haqida so‘zlab bering.

Matnning bo‘lingan qismlariga sarlavhalar qo‘ying va qayta hikoya qiling.

Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas.

O‘zimizda qator soqchi,
Ko‘zimizga qarab boq-chi?!

(Kiprik)

## BIZ – VATANNING ERTASI

Muqim Qodir

Quvnoq o‘g‘il-qizlarmiz,
Yerdagi yulduzlarmiz,
Kelajakni ko‘zlarmiz,
Biz – Vatanning ertasi.

Temurning avlodimiz,
To‘maris zuryodimiz,
Tinchlikdir murodimiz,
Biz – Vatanning ertasi.

O‘sayapmiz erkin, shod,
Izlanib, qilib ijod,
Bilim – bukilmas qanot,
Biz – Vatanning ertasi.

El-yurt sha’ni – orimiz,
Pok saqlash shiorimiz,
Yashasin diyorimiz,
Biz – Vatanning ertasi.

1. She’r kimning nomidan aytilgan?
2. “Biz – Vatanning ertasi” deganda nimani tushunasiz?

She’rdagi quyidagi qatorlar mazmunini tushuntirib bering:

El-yurt sha’ni – orimiz,
Pok saqlash shiorimiz.

O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l.

Tohir tungacha to‘p tepdi.

## TANDIR

(Rivoyat)

**1**

Alisher Navoiyning Muhammad ota degan qo‘shnisi bo‘lgan ekan. Uning birgina uyi bor ekan, xolos. Bir kuni Muhammad ota Navoiyning huzuriga kelibdi-da:

– Hazrat, sizga aytadigan bir iltimosim bor, – debdi. – Men bu dunyodan ko‘z yumgan kunimoq o‘g‘lim Xudoyberdi kulbani sotadigan ko‘rinadi. Nima bo‘lsa ham uni sotishga yo‘l qo‘ymasangiz. Mendan keyin Xudoyberdi bunday uyni tiklab olishiga hech ishonmayman. Kulbasiz ko‘chalarda

qolib, halok bo‘ladi, – debdi-da, ko‘ziga yosh olibdi. Navoiy:

– Aytganingiz bo‘ladi, menga ishoning, – deb yupatibdi.

Muhammad ota uyiga kelib o‘g‘lini yoniga chaqiribdi:

– Bolam, – debdi, – mabodo kunim bitib, qazo qilsam, uyni aslo sota ko‘rma. Bordi-yu judayam sotging kelsa, Navoiy hazratlarining oldilaridan bir o‘tib, keyin bu ishga qo‘l ur. Hazrat senga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadilar.

## 2

Muhammad ota olamdan o‘tibdi. Xudoyberdi uyni sotmoqchi bo‘libdi. “Otam, uyni sotadigan bo‘lsang, Navoiyning oldidan o‘t, degan edi. U qanday yo‘l ko‘rsatar ekan”, debdi-da, shoirning huzuriga kelibdi. Navoiyga maqsadini aytibdi. Shunda Navoiy:

– Yaxshi. Ammo tandiring biroz eski. Buzib, yangisini qur. Uyning narxi oshadi, – debdi.

Xudoyberdi uyiga kelib, tandiriga qarasa, haqiqatan ham tandir juda eski emish. “Navoiy to‘g‘ri aytdi”, – debdi-da, tandirni

buzibdi. Tandirfurushdan tandir sotib olibdi-da, orqaga qaytibdi. Yo‘lda charchab, dam olmoqchi bo‘libdi. Shunda tandir yerga qattiq tegib, sinib ketibdi. Xudoyberdi orqa-ga qaytib, ustadan yana bitta tandir so-tib olibdi. Uyiga yetay deganda uni ham sindirib qo‘yibdi. Bir ilojini qilib, uchinchi tandirni uyiga olib kelibdi-da, eskisining o‘rniga quribdi. Ustiga ko‘p loy bostirib yuborgan ekan, ertalab qarasa, tandir tushib yotgan emish. Xudoyberdining jah-li chiqib: “Navoiy nega meni bunchalik ovora qildi?” – debdi-da, shoirnikiga yo‘l olibdi.

– Hazrat, – debdi Xudoyberdi Navoiyga qarab, – tandirni qurolmadim. Mayli, arzonroq bo‘lsa ham uyni tandirsiz sotaveraman.

– So‘zimni eshit, – debdi Navoiy. – Birgina tandirni eplab qurolmaysan, ammo uyni sotmoqchi bo‘lasan. Uyingni sotib qo‘yib, yangisini qura olmay, ko‘chada qolib ketishni o‘ylamadingmi? Bor, hunar o‘rgan, ishla, uying ham yonga qoladi, tirikchiliging ham o‘tadi...

Navoiyning dono so‘zlariga tan bergan Xudoyberdi hunar o‘rganib, yaxshi kun kechira boshlabdi.

1. Rivoyat nima haqida?
2. Muhammad ota nima uchun Navoiyning oldiga keldi?
3. Rivoyatni o‘qiganda ko‘z oldingizda nimalar namoyon bo‘ldi?
4. Alisher Navoiy to‘g‘ri yo‘l tutdimi?

Ra’no Ravshandan ranjidimi,
Ravshan Ra’nodan ranjidimi?

Qizigan bir kemam bor,
To‘xtovsiz borib-kelar.
Borib-kelgani sari
To‘lqinlarni tekislar.

## OZOD VATAN – OBOD VATAN

Normurod Narzullayev

Bu dunyoda chamanlar ko‘p,
Bu dunyoda vatanlar ko‘p.
Barchasida yashnar gullar,
Barchasida yayrar dillar.

Chorlar ezgu yo‘llar meni,
Ajdodlarim qo‘llar meni.
Bu Vatanda to‘kmasman yosh,
Bu Vatanda egmasman bosh.

Sahrolar gul ochar senda,
Samolar nur sochar senda.
Yulduzlaring so‘nmasin hech,
Bag‘ringga g‘am qo‘nmasin hech.

Mening uchun aziz bo‘ston –
O‘zbekiston, O‘zbekiston!

1. She’r qaysi diyor haqida?
2. She’rni o‘qiganingizda ko‘z oldingizga nimalar keldi?
3. O‘zbekiston haqida yana qanday she’rlarni bilasiz?

Otini ayagan yo‘lda qolmas,
Elini ayagan — cho‘lda.

Kelib ketar bir yilda,
To‘rt og‘ayni har xilda.

## MA’NAVIYATLI XALQNI YENGIB BO‘LMAYDI

(Rivoyat)

Qadim o‘tgan zamonda bir qudratli xon bizning xalqimizni o‘ziga bo‘ysundirishga ahd qilibdi. U son-sanoqsiz askarlarini chegaramizga keltirib qo‘yibdi. So‘ng bir necha kishini qoshiga chorlab:

– Bilib kelinglar-chi, ularning qancha kuchi bor ekan? – debdi.

So‘ng xon o‘z huzuriga vazirlarini, sarkardalarini chaqirtirib:

– Xo‘sh, nima gap? Qani, gapiringlar-chi! – debdi.

– Biz juda ko‘p joylarda bo‘ldik, – debdi ulardan biri. – Bir gal katta ziyofatning

ustidan chiqib qoldik. Xalqning hukmdori ham o‘sha yerda edi. Ziyofat avjiga chiqqan pallada o‘tovga do‘mbira ushlagan o‘n olti yoshlar chamasidagi o‘smir kirib keldi. To‘rda o‘tirgan hukmdor nariroq siljib, haligi bolaga yonidan joy berdi. Biz bunday holdan hayron bo‘lib: “Bir yosh bolaga namuncha izzat-ikrom ko‘rsatilmasa?!” – deb so‘radik yonimizdagilardan. “Axir u bizning shoirimiz-ku!” – deb g‘urur bilan javob qaytarishdi ular.

– Agar ularning hukmdori shu darajada ahmoq bo‘lsa, demak, biz ularni oson yengishimiz mumkin! – debdi buni eshitgan sarkarda ko‘zlari chaqnab.

Shu paytgacha miq etmay o‘tirgan xon sarkardaga boshdan oyoq sinchkovlik bilan nazar tashlabdi-da:

– Yo‘q! – debdi. – Askarlarni orqaga qaytaring! O‘zining ma’naviy boyligini bu qadar e’zozlaydigan, madaniyati yuksak taraqqiy etgan xalqni aslo yengib bo‘lmaydi.

1. Rivoyat nima haqida ekan?
2. Xon nega jang qilishdan voz kechdi?
3. Qanday xalqni yengib bo‘lmas ekan?

Aqlli kengash qilar,
Ahmoq – urush.

## BOLAJON HAYAJONI

Miraziz A’zam

Qayon borsam: yangilik,
Boshim aylanib ketdi.
Shahrimni taniyolmay,
Yuragim o‘ynab ketdi.

Shu yaqin oralarda
Toshkentni kezmabman-da?!
Shuncha saroy o‘sganin
Ko‘rmabman, sezmabman-da!

Bu yangi oq qasrlar
Qaysi oyda yuksalgan?
Mana bu elektrovoz
Qachon kelgan vokzalga?

Navoiy ko‘chamizni
Go‘zal qilibmiz buncha!
“Spark” degan mashinalar
Ko‘payibdi-ya shuncha!

Shu Vatan menikidir
Yuksalguvchi samoga.
Tanitgayman men endi
Yurtim nomin dunyoga.

1. She’rda Toshkentdagi qanday o‘zgarishlar haqida aytilgan?
2. Siz yashaydigan joyda qanday o‘zgarishlar bo‘lyapti?

She’rda tasvirlangan shahar, binolar yoki mashinalar rasmini chizing.

Yurti boyning – o‘zi boy.

Ko‘kda ko‘rdim ko‘prik,
Rangi – yetti turlik.

# “AFROSIYOB” – TEZYURAR POYEZD

Erkin Malik

Sherzod dadasi bilan tezyurar poyezdda Samarqandga boradigan bo‘ldi. U shunday quvondiki, asti qo‘yaverasiz. Poyezd haqida ko‘p eshitgan, televizorda ko‘rgan, ammo chiqmagan edi. Poyezd Toshkent vokzalida savlat to‘kib turardi. Ko‘rinishi bir qarashda yaxlit O‘zbekiston bayrog‘ini eslatardi. O‘rdakburun tumshug‘i havo qarshiligini yengishga yordam berarkan.

Vagonning ichi shinamgina uyga o‘xshardi. Yumshoq o‘rindiqlar oldida esa stollar qo‘yilgan. Ularda gazeta-jurnallar bor. Dadasi bu poyezd Ispaniyada tayyorlanganini aytdi. Birdan deraza orqasidagi manzara chaplashib ketdi.

– Iye, dada, tashqaridagi uylar, daraxtlar qani? – hayron bo‘ldi Sherzod.

– Poyezd yurib ketdi-ku, bilmadingmi? Qani ko‘raylik-chi, o‘hho‘, tezligi soatiga ikki yuz kilometrga yetibdi. Bu tezlikda

tashqaridagi narsalarni ko‘zimiz ilg‘ay olmaydi-da, o‘g‘lim.

– Ha, go‘yo biz bir joyda turibmiz, yer aylanyapti, – dedi Sherzod hayajonlanib. – Dada, bunaqa tezlikda haydovchi oldidan biron narsa chiqib qolsa, nima qiladi?

– Xavotir olma, yo‘lning ikki chekkasi panjara bilan to‘silgan.

Samarqandga yetib kelishdi. Shahardagi qadimiy obidalarni tomosha qilib, kechga tomon Toshkentga qaytishdi. Sherzodning taassurotlari bir olam edi.

1. Sherzod qanday poyezdda sayohatga chiqdi?
2. Poyezd haqida nimalarni bilib oldingiz?

Matnni reja asosida qayta hikoya qiling:
1. Sherzodning dam olish kuni.
2. Sherzod poyezdda.
3. Poyezdning tezligi.

Guli yo‘q bo‘stondan yaproq yaxshi,
Foydasi yo‘q yo‘ldoshdan tayoq yaxshi.

Cho‘zilib yotar narvon,
Undan o‘tar uy-karvon.

# O‘ZBEKISTONIM

Anvar Obidjon

Aziz o‘lkam, o‘zing ko‘rkam,
Chinorlaring bizdek o‘ktam.
Tosh ham gullar tuprog‘ingda,
Mehring qaynar bulog‘ingda.

Qo‘li ochiq bog‘laring ko‘p,
G‘aznaga kon tog‘laring ko‘p.
Yashnamoqda qishloq, shahring,
Yaxshilikka to‘liq bag‘ring.

Osmoningdan, o‘tlog‘ingdan,
Paxtaoydek oppog‘ingdan
Rang olgandir bayrog‘ing ham,
Aziz o‘lkam, o‘zing ko‘rkam!

1. She’rda O‘zbekiston qanday tasvirlangan?
2. She’rda O‘zbekiston bog‘lari va tog‘lari haqida nimalar deyilgan?
3. She’rdan tabiat tasvirini topib o‘qing.

Erkin egatga ekin ekdi.

Yuk ko‘tarar burnida,
Uy qurish bor bo‘ynida.

# SUV OQSIN OROLGA

G‘ani Abdullayev

– Oyi, Orol degan dengiz bor ekan-a?

– Bor, nima edi?

– Suvsirab yig‘layotganmish-a? Tuzlari esa shamolda atrofga to‘zg‘iyotganmish.

– Gaplaring g‘alati-ya. Kimdan eshitding?

– O‘qituvchimizdan. Bekor oqayotgan toza suvlar tejalsa, yaxshi bo‘larkan. Daryo to‘lib oqsa, suvi dengizga yetib borarkan. Shu rostmi?

– Rostlikka rost-ku, bunga ko‘proq kattalar qayg‘urishi kerak... Choyingni ichginda, buzoqchangni boqib kel.

Buzoqchasini yetaklab borayotgan Nodirning qo‘lida jajji ketmoncha, xayoli esa oqqushlardek parvozda.

U buzoqchasini o‘tloqqa qo‘ydi-da, sigirini o‘tlatib yurgan Sadirni chaqirdi.

– Mana bu suvni qara, bekorga jarga oqyapti. Ariq qazib, soyga buramiz.

– Nega endi? – hayron bo‘ldi Sadir.

– Shunday qilsak, suv tejalib, daryoda ko‘proq suv qoladi. Daryo esa Orolga quyiladi. Orol esa suvga zor.

Ikkovlon galma-gal ishlab, ketmonchani bo‘sh qo‘yishmadi.

– Yashavor, og‘ayni. Suvni yangi ariqchaga ochadigan bo‘ldik, – quvonib ketdi Nodir.

– Ochmay tur. Iflosligini qara, – shaldirab oqayotgan suvga nazar soldi sinfdoshi. – Daryodagi baliqlarni kasal qilsa...

– To‘g‘riku-ya, suvni tozalash qiyinov. Ko‘pchilik unga yomon narsalarni tashlagani-tashlagan, – dedi Nodir.

– Bundan keyin suvni kim iflos qilsa, kattalarga aytamiz. Jazosini berishadi.

– Bo‘pti.

Ikki do‘st suv toza bo‘lgach, uni o‘zlari qazigan ariqchaga ochadigan bo‘lishdi.

1. Orol dengizi haqida nimalarni bilasiz?
2. Nodir Orol dengizini qutqarish uchun nima qildi?

3. Orol dengiziga yana qanday yordam berish mumkin?
4. Siz ham suvni iflos qilmaysizmi? Uni tejaysizmi? Nima uchun?

Toma-toma ko‘l bo‘lar.

Uzoqdan boqdim: bir qora tosh,
Yoniga borsam, to‘rt oyoq, bir bosh.
(Toshbaqa)

## SHE’RIM SENGA, VATANIM

Quddus Muhammadiy

Maqtaganda bulbul
Sayrab chamanin,
Men nechun maqtamay
Ona Vatanim.

Mustaqil Vatanning
Men o‘g‘li erkin,
Sevaman dunyoning
Lazzatin, ko‘rkin.

Mening Vatanimda
Tug‘ilgan inson
Tabiiy ijodkor
Bo‘lar, begumon.

Meni shoir etgan
Shu hayot doim.
She’r yo‘lin o‘rgatgan
Quyoshim, oyim.

1. She’rda Vatan haqida nima deyilgan?
2. Siz Vataningizni nima uchun yaxshi ko‘rasiz?
3. Vatan haqida yana qanday she’rlar bilasiz?

Daraxtni yer ko‘kartiradi,
Odamni el ko‘kartiradi.

Hech ham tinim bilmaydi,
Lek joyidan jilmaydi.

## AJOYIB BAHS

Hidoyat Olimova

### 1

O‘rmonga o‘t ketibdi. O‘rmon daraxtlari daryodan yordam so‘rashibdi.

– Sen olovdan qudratlisan. Bizni qutqar.

Daryo o‘rmonni olovdan asrab qolibdi.

– Dunyoda undan kuchliroq narsa yo‘q. Hech narsa uning qudratiga teng kelolmaydi, – deb maqtovlar yog‘dirishibdi daraxtlar.

– Quyosh nurlari mendan kuchliroq. U bir zabtiga olib yer-u ko‘kni qizdirsa, biz bug‘ga aylanib ko‘kka ko‘tarilamiz, – debdi daryo.

Quyosh bu gaplarni eshitib: “Tun kelishi bilan mening hukmim o‘tmay qoladi. Tun mendan kuchliroq”, – deb tan olibdi. Ammo tun ham undan kuchliroq bo‘lgan yer hukmiga bo‘ysunishini aytibdi. Buni eshitgan yer e’tiroz bildiribdi:

– Ko‘ksimni yorib tog‘ o‘sib chiqmoqda. Agar u mendan kuchli bo‘lmaganida bunga uning haddi sig‘armidi?

– Chindan ham tog‘ metindek mustahkam. Balki eng kuchlisi tog‘dir?! Keling-lar, uning o‘zidan so‘rab ko‘ramiz.

Tog‘ bu bahs-u munozaralarni bir chetda jimgina kuzatib turgan ekan.

– Men-ku yumshoqqina yer bag‘rini yorib chiqqanman, – debdi u. – Ammo bag‘rimni yorib minglab gul-chechaklar o‘sib chiqmoqda. Demak, ular mendan qudratliroq bo‘lsa kerak.

## 2

Tong yellarida nafis egilib chayqalayot-gan gul-chechaklarga:

– Ayting-chi, siz chindan ham dunyoda eng kuchlimisiz, hech narsadan qo‘rqmaysizmi? – deb savol berishibdi.

Shunda yashil to‘nli, qizil yonoqli bir gul ularning bahsiga shunday nuqta qo‘yibdi:

– Daryo quyosh nurlaridan qo‘rqsa qo‘rqar, ammo biz qo‘rqmaymiz. Axir, biz quyosh nurlarini emib, ko‘kka bo‘y cho‘zamiz. Quyosh tundan qo‘rqsa qo‘rqar, ammo biz undan ham aslo qo‘rqmaymiz. Biz tun kirishi bilan orom og‘ushida dam olamiz. Tun yerdan qo‘rqsa qo‘rqar, ammo biz undan qo‘rqmaymiz. Axir, u bizning onamiz. Yer tog‘dan qo‘rqsa qo‘rqar, ammo bu qo‘rquv bizga begona. Tog‘ bag‘rini yorib quyoshga intilsak, aslo u bizdan ozor chekmasin. Gul-chechaklardan boshiga nafis ro‘mol o‘raymiz. Uni tomosha qilgani huv bulutlar pastlab o‘tayotganini, qushlar esa atrofida chahchahlashib sayrashayotganini ko‘ryapsizlarmi? Biz daryo va olov otashidan ham qo‘rqmaymiz. Daryo suvlari bug‘lanib, boshimizga yog‘maganida, darrov qurib, xas-cho‘pga aylanardik. Olovda yonmoq esa qismatimizda bor. Ko‘rdingizmi, biz bir-birimizga qanchalar kerakmiz.

1. Sizningcha ertak qahramonlarining eng kuchlisi qaysi?
2. Agarda ulardan birortasi bo‘lmasa, tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.

Yorug‘i bor, dovrug‘i bor,
Izi yo‘q, ovozi bor. (Momaqaldiroq)



## VAQTNING HAJMI QANCHA?

Hamza Imonberdiyev

O‘ylab ko‘rsam, vaqt degan
Rezinali to‘rxalta,
Neki solsang ichiga
Sig‘averar, zo‘r xalta.

Masalan, bir soatda
Nimalar qilish mumkin?
Kitob, gazeta o‘qish,
Samokat minish mumkin.

Do‘sting bilan urishib,
Mumkin hatto yarashish.
Tort yeyotgan ukangga
“Yordamlashish”, “qarashish”.

Alg‘ov-dalg‘ov qilib, so‘ng
Mumkin yig‘ish uy ichin.
Ko‘chirish mumkin hatto
Telefonda uy ishin.

Harakat zo‘r bo‘lsa, vaqt
Rezinali to‘rxalta.
Neki solsang ichiga
Sig‘averar, zo‘r xalta.

1. She’rda vaqt nimaga o‘xshatilyapti? Nima uchun?
2. Bir soat ichida nimalar qilish mumkin ekan?
3. Siz bir soat ichida qancha ishni qilishga ulgurasiz?
4. Vaqtdan to‘g‘ri foydalanish uchun nima qilish kerak?

Vaqting ketdi – baxting ketdi.

# BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

1. Boshqotirmani yechsangiz, shu bo‘limga oid so‘z kelib chiqadi.




2. Rasmni daftaringizga chizib, bo‘sh doirachalarni to‘ldiring.



3. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mashinalar nomlaridan foydalanib boshqotirmani yechsangiz, yerosti yo‘lining nomi kelib chiqadi.




1. Bo‘limdagi qaysi she’r yoki hikoya sizga yoqdi?
2. Siz qaysi hikoya qahramoniga o‘xshashni xohlar edingiz? Nima uchun?
3. Vatan haqida nimalarni bilib oldingiz?

Quyidagi so‘zlar bo‘limdagi qaysi hikoya yoki she’rga taalluqli ekanini toping: Vatan, Toshkent, ma’naviyat, Orol, poyezd, bahs, vaqt.

# MAKTABIM – QUTLUG‘ MAKONIM, KITOBIM – OFTOBIM

## MAKTAB

Umida Abduazimova

Tashnadirman ilmga,
Yurarman seni maqtab.
Nur to‘shading yo‘limga,
Qadrdon ona maktab.

Mehring bilan yosh yurak
To‘lib-toshar limmo-lim.
Bo‘lsam bilimdon, ziyrak,
Yulduzga yetar qo‘lim.

Kitobimning har satrin
O‘qirkanman, dil cho‘g‘dir.
Dunyoda bilimdan zo‘r,
Qudratli qurol yo‘qdir!

She’rni o‘qiganda nimalar ko‘z oldingizga keldi?

1. She’rdagi: “Bo‘lsam bilimdon, ziyrak, Yulduzga yetar qo‘lim”, – degan fikrni izohlab bering.
2. Maktabingiz haqida so‘zlab bering.

Oltin yerda qolsa ham,
Bilimli yo‘lda qolmas.

Safda o‘n ikki askar,
Bo‘yu basti barobar.
Yo‘nsang yog‘och po‘stini,
Rasmlarga rang berar.

# ILM

Abdulla Avloniy

Ilm deb o‘qimoq, yozmoqni yaxshi bilmoq, har bir kerakli narsalarni o‘rganmoqqa aytilur. Ilm – dunyoning izzati. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zero, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatadi. Zehnimizni, fikrimizni o‘tkir qiladi. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir. Ilmning foydasi shu qadar ko‘pdirki, ta’rif qilgan bilan ado qilib bo‘lmaydi. Bizlarni ilm jaholat qorong‘ilig‘idan qutqaradi.

Madaniyat insoniyatni ma’rifat dunyosiga chiqaradi. Yomon fe’llardan, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob sohibi qiladi.

Xulosa qilib aytganda, butun hayotimiz – salomatligimiz, baxtimiz, g‘ayratimiz ilmga bog‘liqdir.

1. Ilm insonga qanday yordam beradi?
2. Ilmsiz inson nimaga o‘xshar ekan?
3. Ilmni qanday egallash mumkin?

Ilmli ming yashar, ilmsiz bir yashar.

Oydin oyni oynadan ko‘rdi.

## UYG‘ON

Mirtemir

Uyg‘on, erkam, ko‘zing och,
Tong yoydi zarrin quloch.
Bosh ustingda aylanib,
Uchib o‘tdi qaldirg‘och.

Allaqachon botdi oy,
Tur, yotmagil, erkatoy.
Qanot yozib osmonda,
Kuy boshladi bo‘zto‘rg‘ay.

Uyg‘on, erkam, tur, erkam,
Ko‘z sol, olamga – ko‘rkam!
Sen uchun bog‘cha, bog‘lar,
Olamlar bermish o‘lkam!

Uyg‘on, qo‘zim, yuzing yuv,
Tong o‘zingday sof, suluv...
Shoshil, erkam, maktabda
Kutadi seni o‘quv!

1. She’r kimning nomidan aytilgan?
2. Nima uchun erta turish kerak ekan?

Erta turib tong otishini kuzating. Ko‘rganlaringizni o‘rtoqlaringizga so‘zlab bering.

Tongda qilsang harakat,
Ishingda bo‘lar barakat.

Ergash Erkinga ergashdimi,
Erkin Ergashga ergashdimi?

Borar bir, kelar bir,
Baribir qo‘shig‘i: “G‘ir-g‘ir...”

## Topishmoq nima?

Topishmoq – xalq og‘zaki ijodining o‘yin turlaridan biri. Topishmoqda topilishi kerak bo‘lgan narsa, hodisalar o‘xshatmalar orqali beriladi. Siz shu o‘xshatmalardan uning nima ekanligini oson topasiz.

# MUKOFOT

Ne’mat Toshpo‘lat

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, kattakon o‘rmonda qayrag‘ochlar ostida bir maktab bor ekan. Unda Moshvoy ismli mushukcha, Qag‘-qag‘ ismli qarg‘acha, Dik-dik ismli quyoncha, ismi Chiy-chiy sichqoncha, Pi-pi ismli maymuncha, Xir-xir ismli cho‘chqacha va boshqalar o‘qishar ekan.

O‘qish boshlangan kuni Tovusxon ismli juda xushfe’l, muloyim bir o‘qituvchi ularga kitob va daftarlar ulashibdi.

– Kitoblaringizni yirtmasdan, yaxshi saqlanglar. Bu kitoblarni sizdan keyin ukalaringiz ham o‘qishadi, – debdi va ta’kidlab yana qo‘shib qo‘yibdi: – Kimki kitobini yaxshi saqlasa, o‘quv yili oxirida o‘shanga mukofot ham beramiz.

Ular kitob va daftarlarni sevinib-sevinib olib ketishibdi. Oradan ko‘p o‘tmabdi. Bir kuni Chiy-chiy Pi-piga maqtanib:

– Muqovasini yeb ko‘rsam, biram mazaliki, – debdi kitobini ko‘rsatib.

Pi-pi ham shunaqamikan-a, deb kitobning muqovasini qiyma-qiyma qilibdi.

Ularni kuzatib turgan Xir-xir ham maqtanib qolibdi:

– Kitobda piyoz, sholg‘om, kartoshka surati bor ekan, hammasini yedim.

Pi-pi ham qiziqib ketib, kitobdagi jami suratlarni yeb chiqibdi. Qag‘-qag‘ ham bo‘sh kelmabdi. Olcha, gilos, olma, yong‘oq rasmlarini cho‘qib, kitobni ilma-teshik qilib tashlabdi.

O‘quv yili tugashi bilanoq Tovusxon o‘quvchilardan kitoblarni birma-bir yig‘ib olibdi. U Chiy-chiy bilan Pi-pidan ham, Xir-xir bilan Qag‘-qag‘dan ham juda-juda xafa bo‘libdi. Ammo Moshvoy bilan Dik-

dikdan xursand bo‘libdi. Chunki ular kitoblarini yirtmay, kir qilmay, ozoda saqlagan, yaxshi tutishgan ekan.

Tovusxon Dik-dikka bitta sabzi, Moshvoyga esa issiqqina bo‘g‘irsoq mukofot beribdi va suratlarini namunalilar qatoriga ilib qo‘yibdi.

1. Hikoya qahramonlaridan kimlar noto‘g‘ri ish qilishdi?
2. Tovusxon Dik-dik va Moshvoyga nima uchun mukofot berdi?
3. Siz kitoblaringizni qanday saqlaysiz?

Hikoya qahramonlarining kitobga munosabatlariga baho bering.

O‘qiganning o‘qi o‘zibdi.

Sardor sabzini savatga soldimi,
Sardor sabzini savatdan oldimi?

## ONA TILIM

Vafo Fayzulloh

Bobolar hikmat bilgan,
Ardoqlab lug‘at qilgan,
Qolishmas hech bir tildan,
Chiroyli qizil guldan.
Yayraydi hardam dilim,
Sen sabab, ona tilim.

Navoiy ulg‘aytirdi,
Qodiriy ko‘zga surdi.
Sayroqi bulbul kuyi,
Anvoyi gullar bo‘yi
Sendadir, ona tilim,
Yayraydi hardam dilim.

1. She’rda ona tilimiz haqida nima deyilgan?
2. Nima uchun “ona tilim” deymiz?
3. She’rda buyuk bobokalonlarimiz haqida nima deyilgan?

Tilni bilish – elni bilish.

O‘rtog‘im – ruchka, qalam,
Bir chiziq, katak – dalam.

## SAYOQ BOLA

Rauf Tolib

**1**

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir Tuflijon bo‘lgan ekan. O‘sha Tuflijon-chi, men bo‘laman. Tojivoy meni kiyvolib, sevinchdan o‘yinga tushganini ko‘rsangiz. U burni tanqaygancha ko‘chaga chiqdi. Aksiga olib, ko‘chada pashsha ham ko‘rinmasaya? Tojivoy uch-to‘rt kun hurmatimni joyiga qo‘ydi-yu...

## 2

Tojivoy bilan bugun maktabga yo‘l oldim. Qo‘ng‘iroq chalinib, dars boshlandi. O‘qituvchi jon kuydirib gapiryapti-yu, Tojivoy o‘rtoqlari bilan pichirlashib o‘tiribdi. Mening ham bitta-yarimta bilan gaplashgim keldi. Qarasam, yonginamda qo‘shni Tufli turibdi.

– Salom, dedim sekin unga.

– Salom, – dedi u ham.

– Bugun qayoqqa borasizlar?

– Tushdan keyin to‘garakka boramiz. Xo‘sh, o‘zing-chi?

– Bilmasam.

Shu payt tanaffusga qo‘ng‘iroq chalinib qoldi. Dars tugaganiga achinib ketdim. Axir, maza qilib dam olayotgan edim-da.

## 3

Uyga kelgach, Tojivoy papkasini uloqtirib yubordi. Ko‘-chaga chiqdik. O‘nqir-cho‘nqir, shag‘alli maydondan yurib ketdim. Har qadamda yuzimni toshlarga urib olaman. Shu payt oldimizdan kattakon ko‘lmak chiqib qolsa bo‘ladimi?!

Tojivoy bir sakragan edi, uning qoq o‘rtasiga kelib tushdik. Suvdan shalvirab chiqdim. Yuzim loy, iflos.

**4**

Mana, bugun yana darsda o‘tiribman. Dars sira tugamasa, deyman. Sababi – tinchman. Darsdan keyin to‘g‘ri yo‘l qolib, yana qurilish maydoni tomon yurdik. Falokat oyoq ostida, deganlari rost ekan. Nimagadir qoqilib, Tojivoy yuztuban yiqildi. Tizzalari shilingan, voyvoylab o‘rnidan turolmay qoldi. Ajab bo‘ldi. Sayoq yurgan tayoq yeydi, deb shunga aytsalar kerakda!

1. Hikoya kimning tilidan aytilgan?
2. U nima uchun Tojivoydan xafa bo‘ldi?
3. Hikoyadan qanday saboq oldingiz?
4. Siz Tojivoyning harakatlariga qanday baho berasiz?

Hikoyaning qismlariga sarlavha qo‘ying va qayta hikoya qiling.

Yaxshi yaxshiga yondashtirar,
Yomon – yo‘ldan adashtirar.

Bog‘lasam, yuradi,
Yechsam, to‘xtaydi.

## YODLASAM BO‘LMASMIDI?

Kavsar Turdiyeva

Shu kichkina she’rchani
Yodlasam bo‘lmasmidi?
Hozirgidek yuragim
Po‘killab urmas edi.

O, qani endi nogahon
O‘ngidan kelsa tushim.
Xuddi tushimdagidek
Birdan yo‘qotsam hushim.

Jimgina najot kutib
Yotardim “Tez yordam”dan.
She’rni kim ham so‘rardi
Kasal yotgan odamdan.

Yoki o‘qituvchimiz
Bizga rahm qilsalar.
Vazifani topshirib,
Uyga javob bersalar.

Xayolimni qo‘ng‘iroq
Chil-chil qilib tashladi.
O‘qituvchi kiriboq,
She’rni so‘ray boshladi.

1. She’rdagi o‘quvchi nima uchun xayol surib qoldi?
2. She’r qahramoni o‘rnida siz bo‘lsangiz nima qilar edingiz?
3. Ushbu she’r qahramoni bilan “Sayoq bola” hikoyasidagi Tojivoy nimasi bilan o‘xshash?

She’r qahramonining xayollariga oid misralarni topib o‘qing.

Yaxshi bo‘lsang, o‘zarsan,
Yomon bo‘lsang, to‘zarsan.

Taxtapulda taxta ko‘prik,
Oltinsoyda osma ko‘prik.

# ILK SABOQ

Raim Farhodiy

Bugun rosa shodlandik,
Maktab tomon otlandik.
Ostonadan hatlaymiz,
Darsda she'rlar yodlaymiz.

Ilm olib behisob,
O'qiymiz qancha kitob.
Aql-idrok bulog'i,
O'quvchining o'rtog'i.

Yordam ayamas har on,
Ustoz – eng aziz inson.
Ustozga biz havasda,
Taqdim etdik guldasta.

Bo‘ldi rangin kamalak,
Ustozga aytdik tilak.
Jaranglasin qo‘ng‘iroq,
Darslar boshlansin tezroq!

1. She’r kimlar haqida?
2. Siz maktab va ustoz haqida yana nima deya olasiz?

1. She’rdan ustozlar haqidagi bandni topib o‘qing.
2. Ustozlar haqidagi maqollardan ayting.

Oqdir dalasi, qoradir urug‘i,
Qo‘l bilan ekiladi, ko‘z bilan o‘riladi.
(Kitob)

## ENG YAQIN DO‘STIMIZ

Hakim Nazir

Kitobni oftobga qiyos etishlari bejiz emas. Kitob dillarni uyg‘otib, munavvar qilish bilan birga hayot, mavjudot sirlaridan voqif etuvchi bebaho xazina. U ko‘ngillarga ezgulik urug‘ini sepib, yashashdan saboq beradi. Qiyinchiliklarni yenga olishga, yaxshilik bilan yomonlik-

ni ajrata bilishni o‘rgatadi. Kitob zehnlarni peshlab, bilimlar koniga eshik ochadi, ma’naviyatni boyitadi. Insonning jamiyatdagi mavqeyi, qadr-u qimmati bilimda, ilmlar konini egallashdadir. Buyuk mutafakkirlarning hayoti, tajribasi shunga guvohlik beradi. Ulug‘ alloma Abdurahmon Jomiy: “Kitobdan yaxshiroq do‘st yo‘q jahonda, Hamrohing bo‘lur u g‘amli zamonda”, – deya kitobni behad ulug‘lagan ekan.

Bolalik, yoshlik oltin davr bo‘lsa, uning har kuni, har soatini g‘animat sezib, bilim boyliklarini qancha ko‘p g‘amlasangiz, shuncha kelajak turmushda o‘zingizga ham, o‘zgalarga ham asqatadi.

1. Kitob insonlarga nima beradi?
2. Kitob haqida yana nimalarni bilasiz?
3. Siz bo‘sh vaqtingizda kitob o‘qiysizmi? Qanday kitoblar o‘qigansiz?

Kitob bilim beradi,
Bilim baxt keltiradi.

Kitoblar kitobxonlarga kerak,
Kitobxonlar kitoblarga kerak.

Qo‘shig‘i asli “qu-qu”,
Tongni qarshi olar u.
Ko‘zdan qochsin deb uyqu,
Jar soluvchi so‘zi shu.

# BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

1. Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri birlashtirsangiz, kitob haqidagi maqol hosil bo‘ladi.




2. Boshqotirmaga o‘quv qurollari va jihozlar nomlarini to‘g‘ri joylashtirsangiz, kalit so‘z kelib chiqadi.



3. Rebusni to‘g‘ri yechsangiz, bilimga doir maqol hosil bo‘ladi.

6 + n y ~~sh~~ + da l ~~sh~~ + sa h ~~sh~~,

bi ~~ye~~ + li + da o ~~o‘~~ + mas.

4. O‘quvchiga maktabga borish yo‘lini topishga yordamlashib, ilmga doir maqolni o‘qiysiz.

bir shar, li

shar.

ming

siz



ilm

ilm

ya ya

1. Bo‘limda qanday she’r va hikoyalarni o‘rgandingiz?
2. “Mukofot” hikoyasidagi qahramonlarni sanab bering. Ularning qaysi biri to‘g‘ri ish qildi?
3. “Sayoq bola” hikoyasi va “Yodlasam bo‘lmasmidi?” she’ridagi qahramonlarga baho bering.

# OLTIN KUZ – HOSILING YUZ

## OLTIN KUZ

Tursunboy Adashboyev

Yana xazonrezgilik,
Bog‘lar rangi siniqdi.
Dilda hokim ezgulik,
Anhorda suv tiniqdi.

Yashil libos daraxtlar
Taqdi yana zar baldoq.
Qushlarga gap tayinlab,
Chag‘chag‘laydi zarg‘aldoq.

Ufq orti lolagun,
Daraxtlardan rang olar.
Xayrlashib kuz bugun,
Sochar oltin tangalar.

1. She’r qaysi fasl haqida ekan?
2. Shoir: “Xayrlashib kuz bugun, Sochar oltin tangalar”, – deganda nima haqida o‘ylagan?
3. Kuz faslida tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

Kuzning bir kuni qishning bir oyini boqar.

Olma shoxida olmaxon,
Olmani olma, Olmaxon.

Qat-qat to‘nli bu polvon,
Archib, yig‘ladi Javlon.

## KUZ

Qutlibeka Rahimboyeva

Daraxtlarning yaproqlari tillarangga kira boshlaydi. Ertalab va kechki shabadada ular zarqanot qushchalarga o‘xshab uchadilar. Yoz bo‘yi shovqin solib, ba’zi joylarda loyqalanib oqqan suvlar sokinlashadi, tiniq tortadi.

1-sentabr – kuzning birinchi kuni. 1-sentabr eng katta bayramlarimizdan biri – Mustaqillik kuni. Bu ulug‘ shodiyona 31-avgust – yozning so‘nggi kunidan boshlab bayram qilina boshlaydi. Bayram sayillari poytaxtimizdagi Milliy bog‘dan

boshlanib, shahar-u qishloqlarimizda davom etadi. 2-sentabr kuni yangi o‘quv yili boshlanadi va shu kuni Bilimlar kuni ham nishonlanadi.

Kuz O‘zbekistonimiz uchun pishiqchilik fasli hisoblanadi. Dalalarda paxtalar oppoq bo‘lib ochiladi. Kuzda olma, behi, yong‘oqlar pishadi. Tunlari bog‘larda “to‘p-to‘p” qilib birovlar yurib chiqayotgandek tuyuladi. Bu – daraxtlardan uzilayotgan mevalar tovushi. Shamollar xuddi “K-u-u-z”, deya uzun nafas chiqarib, bog‘dan bog‘ga yelib yurgandek tuyuladi. Polizlarda sabzavotlar yetiladi. Erta ko‘klamda ko‘kka arg‘imchoq solib uchib kelgan turnalar yana o‘shanday chiroyli bir saf bilan issiq o‘lkalarga uchib ketishadi.

Kuz o‘rtalarida o‘lkamizda Mehrjon bayrami nishonlanadi. Bu dalalarimizda yetishtirilgan mo‘l-ko‘l hosil bayramidir.

1. Kuzda tabiatni kuzatganmisiz?
2. Kuzda qaysi rang ko‘p uchraydi?

Matnni qismlarga ajrating. Har bir qismiga sarlavha qo‘ying. Qayta hikoya qiling.

Yer haydasang, kuz hayda,
Kuz haydamasang, yuz hayda.

## KUZ FASLI

Eson Rahimov

Davra qurib turnalar,
Boshimizda aylanar.
Budir kuz fasli bazmi,
Ona yerga ta'zimi.

Oltin fasl – kuz fasli,
Zarshunoslikdir asli.
Undan qirlar, tog' – oltin,
Undan yerlar, bog' – oltin.

Mevalar ham mo'l-u ko'l,
Ne yesang ham bol yeysan,
Kuzga: "Ofarin", – deysan.

Bunday oltinligin ham,
Tengsiz totliligin ham
Aytsam bitmas siri bor:
Unda mehnat teri bor.

1. She'rda kuz fasli nima uchun "oltin fasl" deyilgan?
2. Kuz faslida qanday mevalar pishadi?

Dala va bog'larda kuz faslida bajariladigan yumushlar haqida so'zlab bering.

Kuzning qozoni quyuq qaynar.

Shirin sharbatning shirasi shakardan shirin.

Daraxtlarning barglari
Rang olar oltin misol.
Qay faslda, ayt, Muslim,
Yuz beradi shunday hol?!

(Kuz)

## BARGLAR NEGA SARG'AYADI?

Muhabbat O'rinboy qizi

**1**

Kuz keldi. Tipratikan odatdagidek ertalab inidan chiqdi. Shu payt ustiga bir dona barg tushdi. Tipratikan olib qarasa, barg-ning rangi sap-sariq ekan. U boshini ko'tarib daraxtlarga qaradi. Daraxtlar-

ning u yer-bu yerida sariq barglar paydo bo‘libdi. Kechagi kungacha daraxtda sariq barg yo‘q edi. “Qiziq, barglar nega sarg‘ayar ekan-a?” – deb o‘yladi tipratikan.

Savoliga javob topish niyatida bargni ignasiga ilib oldi-da, o‘rmon bo‘ylab ketdi. Yo‘lda unga olmaxon uchradi. U qish uchun yong‘oq yig‘ib yurgan ekan.

– Olmaxon, sen bilmaysanmi, kuzda barglar nega sarg‘ayadi? – so‘radi tipratikan.

– Kuzda ular kasal bo‘ladi, shuning uchun sarg‘ayadi, – dedi olmaxon.

– Nega kasal bo‘ladi? Qara, u kasalga o‘xshamaydi, – dedi tipratikan.

– Nega kasal bo‘lmasin? Sovuqda barglar tugul men ham kasal bo‘lib qolaman, o‘shanda mening ham rangim sarg‘ayib ketadi, – dedi olmaxon.

Olmaxonning javobi tipratikanga yoqmadi. U bargni ignalariga ilib, yo‘lida davom etdi. Yo‘lda oldidan tulki chiqdi.

– Tulkivoy, sen bilmaysanmi, nega kuzda barglar sarg‘ayadi? – so‘radi tipratikan.

– Bilaman, kuzda menga ov qilish oson bo‘lishi uchun. Mening rangim ustingdagi

bargning rangiga o‘xshaydi. Shunga bekinishim oson bo‘ladi, – dedi tulki. Tipratikan biroz o‘ylanib turdi, lekin bu javob ham unga yoqmadi.

– Barglar sen uchun sarg‘ayadi, deb o‘ylamayman, – dedi tipratikan va yo‘lida davom etdi.

## 2

Yurib-yurib katta bir daraxt tagiga yetganida yuqoridan:

– Kirpivoy, yo‘l bo‘lsin, – degan ovoz eshitildi. Tipratikan boshini ko‘tarib qarasa, ukki o‘tirgan ekan. Tipratikan unga qarab dedi:

– Ukki, kuzda barglar nega sarg‘ayadi?

– Men hamma narsani bilaman, – dedi ukki. – Ustingdagi barg ko‘rinishidan oddiy bo‘lsa ham, juda murakkab, u go‘yo bizning o‘rmonga o‘xshaydi. Bargning sirtida son-sanoqsiz mayda inlar bor. U inlarda pigmentlar deb ataluvchi mavjudotlar yashaydi. Ularning ayrimlari yashil, ayrimlari esa sariq rangda. Yozda yashil,

kuzda esa sariq pigmentlar inidan chiqadi. Shunda bargning rangi goh yashil, goh sariq bo‘lib ko‘rinadi, – dedi ukki va aqlli javobidan mamnun bo‘lib, kerishib qo‘ydi.

Tipratikan uning oldidan ketar ekan, o‘yladi: “Ukkining javobi to‘g‘riligiga shubham yo‘q, lekin men boshqacha fikrdaman. Kuzda quyosh bulutlar orqasiga yashirinib, kam ko‘rinadi. Quyoshni sog‘ingan barglar esa sariq rangga kirib, xuddi quyosh tushib turgandek o‘rmonni sariq rangga bo‘yaydi. Mana shu javob menga ko‘proq yoqyapti”. U savoliga o‘zi javob topganiga xursand bo‘ldi.

1. Ertak qahramoni tipratikan qanday hodisaga duch keldi?
2. U savoliga javob topish uchun kimlar bilan uchrashdi?

“Atrofimizdagi olam” darsidan olgan bilimlaringiz asosida kimning javobi to‘g‘riligini aniqlang.

Nima eksang, shuni o‘rasan.

Xavf bo‘lsa, koptok bo‘lib,
Igna ko‘rpa yopadi.
Zumda ko‘z ochib turib,
Ilgarilab chopadi.

## BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

1. Tushirib qoldirilgan so‘zni qo‘shib rebusni yechsangiz, shu bo‘limning nomi kelib chiqadi.

6 + n ~~o‘~~ u – ... 100

2. Boshqotirmani to‘g‘ri yechsangiz, kuzgi hosil bayramining nomi kelib chiqadi.




1. Kuzda tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
2. Bo‘limdagi qaysi she’r yoki hikoya sizga yoqdi? Nima uchun?
3. Kuzda barglar nega sarg‘ayadi?

Kuz manzarasiga oid rasm chizing.

# MEHNAT BAXT KELTIRAR

## ODAM BO‘LAMAN

Anvar Obidjon

Kezaman ko‘p joylarni
Moy tomchigan kiyimda.
Ba’zan kitob titkilab,
Dam olaman uyimda.
Men shofyor bo‘laman, dada!
– Mayli...

Halinchakda akamdan
Ancha baland uchaman.
Katta bo‘lsam, yaxshisi,
Borib oyni quchaman.
Men fazogir bo‘laman,
dada...
– Ixtiyoring...

Chalg‘itaman maydonda
Bolalarning ko‘pini.
Kecha bitta tepishda

Teshdim Norning to‘pini.
Men futbolchi bo‘laman, dada!
– O‘h-ho‘...

Kesvolibdi barmog‘in
O‘tgan kuni Mira’zam.
Qotib qoldi yarasi
Jindekkina tuz sepsam.
Men do‘xtir bo‘laman, dada!
– Yomonmas...

Tag‘in o‘ylab ko‘raman,
Hammasi ham yaxshi ish.
Faqat yalqov bo‘lmayman,
Hecham tortmang siz tashvish.
Men... odam bo‘laman, dada!
– Balli, azamat!

1. She’r qahramoni kelajakda kim bo‘lmoqchi?
2. She’rda qaysi kasblar haqida aytilgan?
3. Siz kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?

Mehnatning ko‘zini topgan
Boylikning o‘zini topar.

Jo‘ra Javlonga jo‘r bo‘ldi,
Javlon Jo‘raga jo‘r bo‘ldi.

Pishirsang, osh bo‘lar,
Pishirmasang, qush bo‘lar. (Tuxum)

# KEKSA KULOL VA SHOGIRD

Qudrat Hikmat

Bir mo‘ysafid kulolning uyiga o‘g‘lini boshlab kelibdi. Unga hunar o‘rgatishni iltimos qilibdi. Kulol rozi bo‘libdi.

Shogird kulolnikida soz tuproq qazibdi, suv tashibdi, loy qilibdi, o‘choqqa o‘t qalabdi. Xullas, uning aytganlarini bajo keltirib yuribdi.

Oradan bir necha qish-u yoz o‘tibdi. Shogird: “Kulolchilikni miridan sirigacha bilib oldim, endi yugurdak bo‘lib yuramanmi?” – debdi-da, ustozidan javob so‘rabdi.

Kulol bo‘lsa:

– O‘g‘lim, hunar injiq narsa, sabr-toqat qilib, yana biror yil menga qarashib, o‘rganib turganing ma’qul edi, – debdi.

Shogirdning sabri chidamay, ustozini holi-joniga qo‘ymay, fotihasini olibdi.

Katta bozorda do‘kon ochgan kunlari xaridorlar uning piyola, choynak, ko‘zachalarini talashib olib ketishibdi. Ustozi bo‘lsa: “Mayli, oxiri xayrli bo‘lsin!” – deb o‘z yumushini davom ettiraveribdi.

Oradan biroz vaqt o‘tar-o‘tmas shogirdning ishi yurishmay qolibdi, uning mollari-

ni xarid qilmay qo‘yishibdi. U yasagan lagan, tovoqlarning sirlari xiralashib, ko‘chib ketayotgan emish. Oxiri shogird dastmoyasidan ajrab, ko‘p aziyat chekibdi. Nihoyat, kulolnikiga pushaymon bo‘lib qaytib kelibdi.



Kulol uning joniga tag‘in ora kiribdi.

Kunlar o‘tibdi. Shogirdiga kulol:

– Bolam, alaxsimay, razm solib tur! – debdi-da, qurigan idishlarini bir-bir puflab, so‘ngra sir beribdi. Shunda lagan-u tovoqlarning chiroyi yanada ochilib, yarqirab ketibdi.

Shogird endi uning hunarini batafsil egallab olishga astoydil bel bog‘labdi.

1. Hikoya qahramonlari kimlar?
2. Nima uchun shogirdning ishi yurishmadi?
3. Hikoyadan qanday saboq oldingiz?

Reja asosida matnni og‘zaki hikoya qiling:

1. Kulolning shogirdi.
2. Shogird mustaqil bo‘ldi.
3. Shogirdning qaytishi.

Obro‘ qozonaman desang, o‘z ishingning ustasi bo‘l.

Ko‘zlarimga qilib zo‘rlik,
Tongda ketdi charchab, sho‘rlik.
(Uyqu)

## HUNAR – BEBAHO BOYLIK

Ollobergan Po‘lat

Sarvarjon – kichik dehqon,
Yashar yer-la tillashib.
Singlisi bilan har on
Ish qiladi bellashib.

Yerni chopib, avaylab,
No‘xat ekdi bu yil ham.
Urug‘ini saralab,
O‘stirdi piyoz, karam.

Erinmasdan ter to‘kar,
Mo‘l bo‘lsin deb sabzavot.
Shu bois kichik Sarvar
Qozondi tez yaxshi ot.

Men ekkan qovunlar ham
Qani tez o‘sa qolsa.
Hosilini ko‘rganlar
Nomimni tilga olsa!..

1. She’r kim haqida? U qanday yumush bilan mashg‘ul ekan?
2. Nima uchun she’r “Hunar – bebaho boylik” deb nomlangan?

Siz ham ekin ekkanmisiz? Shu haqida gapirib bering.

Har bir kishining qadr-qimmati o‘z ishini qoyil qilib bajarishidadir.

**Hikmatli so‘z nima?**

Hikmatli so‘zlar hayot haqiqatini ifodalaydigan chuqur ma’noli va mazmunli gaplardir. Unga amal qilganlar hayotda kam bo‘lmaydilar.

## MENING DO‘STIM KOMPYUSHA

Alisa Lavruxina

Kompyuter menga juda ham yoqadi. “R” harfiga tilim uncha kelishmagani uchun erkalab “Kompyusha” deb atayman.

Bugun o‘rtoqlarim bilan ko‘proq to‘p tepdim. So‘ng kompyusha oldidagi stulga o‘tirdim. Bu kech uyimizga mehmonlar kelishgan. Shuning uchun elektron mashina bilan muloqot qilishimga hech kim xalaqit bermadi. Bir payt deraza orti qorong‘ilashib, ko‘zim ilina boshladi. To‘satdan kimningdir g‘ayrioddiy tovushini eshitdim:

– Klavishlarni qattiq bosma, klaviaturani ehtiyot qil!

Atrofimga qarab hech kimni ko‘rmadim. Biroq klaviaturadagi klavishlar chiqillab, ekranda nuqtalar paydo bo‘lganini ko‘rdim.

– Kompyusha, senga nima bo‘ldi? – dedim bu ovoz qayerdan kelayotganini fahmlab.

– Sen bilan tanishsam, degandim, – dedi u. – Senga qiziq bir mashg‘ulotni taklif etaman.

– Yaqinroq tanishishga qarshi emasman, – dedim. Ekran yarqirab, klavishlar chiqillay boshladi. – Dadam sen haqingda menga ko‘p narsalarni so‘zlab bergan.

– Mening nimalarga qodirligim haqida ham gapirib berganmi?

– Sen juda ham qobiliyatlisan! Juda tez sanaysan, ko‘plab tillarda yozasan, mendan yaxshi rasmlar chiza olasan.

Men shu kecha kompyusham bilan anchagacha suhbatlashdim. Bilib olganlarim haqida ertaga, albatta, o‘rtoqlarimga gapirib berishga ahd qildim.

1. Matn nima haqida ekan?
2. Siz kompyuter bilan tanishmisiz?
3. Kompyuterdan to‘g‘ri foydalanish qoidalarini bilasizmi?

Bilim va hunar ol, qadrla uni,
Bilim-la hunar ham qadrlar seni.

## NON AZIZ

Obid Rasul

Oyim xamir qorarlar,
Non yopmoqchi bo‘larlar.
Yonlarida men borman,
Yumush bo‘lsa, tayyorman.

Zuvalalar uzarman,
Patirga gul chizarman.
Oyim xursand ishimdan,
Quvonib ich-ichidan:

– Bolam, – derlar, – omon bo‘l,
Barchaga mehribon bo‘l.

Ushoq ham – non, azizim,
Nonga qilamiz ta'zim,
Bebahodir non, qizim.
– Xo'p bo'ladi, jon oyi,
Bildim: aziz non, oyi.

1. She'r nima haqida? Biz nima uchun uni e'zozlaymiz?
2. She'r kimning nomidan aytilgan?

Non haqida maqollar ayting.

Non – aziz ne'mat.

Non yasashasizmi,
Sholi sanashasizmi?



## UCH O'G'IL

(Ertak)

**1**

Bor ekan-u yo'q ekan, qadim zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. Uning tirikchiligi yaxshi ham, yomon ham emas ekan. Uch nafar o'g'li bor ekan. Bir kuni dehqon uzoq safarga chiqmoqchi bo'libdi. Yo'l oldidan o'g'illarini yoniga chaqirib, debdi:

– Men uzoq yurtlarga ketyapman. Har biringizga bir juftdan tovuq, o‘rdak, g‘oz berib ketaman. Men kelguncha tuxumini sotinglar, lekin pulini aslo sarflamay, yig‘inglar.

Dehqon bobo to‘ng‘ich o‘g‘liga bir juft tovuq, o‘rtanchasiga bir juft o‘rdak, kenjasiga bir juft g‘oz beribdi-da, jo‘nab ketibdi.

Parrandalar tuxum tug‘a boshlabdi. Uch o‘g‘il tuxumlarni sota boshlashibdi. Qo‘liga pul tushgan katta o‘g‘ilning fikri buzilibdi. “Tuxumning pulini yig‘ib nima qildim? Dadam kelgunicha yaxshilab o‘ynab olay. Agar ular so‘rasa, tovug‘ingiz tug‘mas ekan, deyman”, – degan xayolga boribdi.

O‘rtancha o‘g‘il ham oldin o‘rdakning tuxumlarini, keyin o‘zini ham sotib yuboribdi.

## 2

Kenja o‘g‘il esa g‘ozning tuxumlarini yig‘ib, bostiribdi. G‘ozlarni ko‘paytirib, tuxumlarini sotibdi. Otasi kelgunicha anchagina pul yig‘ibdi. Otasi safardan qaytgach, to‘ng‘ich o‘g‘lini huzuriga chaqiribdi. O‘g‘li oldindan tayyorlab qo‘ygan

javobini aytibdi. “Sen yaxshi odam bo‘lmas ekansan. Qariganimda kunimga asqatmas ekansan”, – deb ko‘nglidan kechiribdi ota. O‘rtancha o‘g‘lini chaqirgan ekan, u ham yolg‘on gapiribdi. “Sen qariganimda qarash tugul, o‘zingni ham eplolmas ekansan”, – xayolidan o‘tkazibdi ota.

Kenja o‘g‘il tuxum sotib yig‘gan pullarini beribdi. G‘ozlarini ko‘rsatibdi. Ota mamnun bo‘libdi: “Sen mehnatkash, yaxshi odam bo‘lar ekansan”.

Oradan yillar o‘tibdi. Ota avval ikki katta o‘g‘lini, keyin kenjasini uylantirib qo‘yibdi. Ikki katta o‘g‘ilning turmushi birinchi kundanoq yaxshi bo‘lmabdi. Ular tez orada bor bisotlarini sotib, yeb-ichib tugatishibdi-da, yana otalarining qo‘liga qarab qolishibdi.

Kenja o‘g‘il esa tadbirkorlik bilan ish tutib, kundan kun yaxshi yashay boshlabdi. Otasining hurmatini joyiga qo‘yib, izzat-ikrom qilibdi. Dehqon kenja o‘g‘lidan rozi bo‘libdi.

1. Ertak qahramonlarini sanab bering. Ular qanday insonlar ekan?
2. Qaysi qahramon to‘g‘ri ish qildi deb o‘ylaysiz? Nima uchun?

Ertakni qismlarga ajrating va har bir qismga sarlavha qo‘ying.

Obro‘ning onasi – mehnat,
Otasi – harakat.

To‘lqinjon to‘rtga to‘ldi,
To‘lqinjon tortga to‘ydi.

Dumi bor-u, ot emas,
Qanoti bor, qush emas.

(Baliq)

## BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

1. Suratni kuzating. Siz duradgor va novvoyga o‘z ish qurollari va kerakli mahsulotlarini topishda yordam bering.

2. Har bir guldagi raqamlarga va gul-barglar soniga qarab, mos kasb-hunar nomlarini yozing.

3



4

1

5

2

Guldondagi gullardan birini tanlang. Kelajakda kim bo‘lmoqchisiz va nima uchun?

1. Bo‘limdagi qaysi she’r yoki hikoya sizga yoqdi?
2. Anvar Obidjonning “Odam bo‘laman” she’ridan qanday saboq oldingiz?

1. “Uch o‘g‘il” ertagi haqidagi o‘z mulohazalaringizni ayting.
2. Bo‘limda o‘rganganlaringiz asosida reja tuzib, hikoya yozing. Unda bo‘limdagi qahramonlar qatnashsin.

# KUMUSH QISH – MISOLI OQQUSH

## QISH

Ilyos Muslim

O‘tib ketdi kuz chog‘i,
Yetib keldi qish yana.
Kengdir muzlik quchog‘i,
Bolalar tortar chana.

G‘izillashib o‘tishar
O‘g‘il-qizlar quvnashib.
Konki otib uchishar
Bir-birlarin quvlashib.

Dam olib o‘tkazadi
Bo‘sh vaqtlarin bolalar.
Oq to‘nga o‘raladi
Butun atrof, dalalar.

Qish ham rohat bizlarga –
Ish qilib, olamiz dam.
To‘lar o‘g‘il-qizlarga
Qorli tepalar har dam.

1. Shoir qish faslini qanday ta’riflagan?
2. Nima uchun qor yog‘ganda bolalar xursand bo‘ladilar?

Qish haqida maqollar ayting.

Baraka – inoqlikda,
Boqiylik – quvnoqlikda.

To‘rt faslda bir xil libos –
Kiyib yashnar, mevasiz.
Aytsam, bog‘ning ko‘rki deysiz,
Siz ham uni sevasiz.

## QISHNING O‘RTOG‘I

Zahro Hasanova

Avvallari qish kelishi bilan qo‘l-oyoqlarim muzlab, hech ishga qo‘l urgim kelmasdi. O‘rtoqlarim qor o‘ynashga chaqirishsa: “Shu sovuqda nima bor?” – deb javob qilardim. Turli sabablarni ro‘kach qilib, maktabga bormaslik yo‘lini izlardim.

Bir kuni erta tongda dadam menga qarab, dedi:

– Qani, sport kiyimingni kiyib ol-chi, endi har kuni badantarbiya bilan shug‘ullanamiz.

Noiloj tashqariga chiqdim. Dadam qanday harakat qilsa, men ham shunday

qildim. Birpasdan keyin havo isigandek tuyula boshladi:

– Bugun havo isib ketdimi, dada? – so‘radim ob-havoga tushunmay.

– Eh o‘g‘lim, – kulib qo‘ydi dadam, – bugun ham havo kechagidek sovuq. Faqat bugun harakat qilganing sababli tanangga issiqlik yugurdi. O‘g‘lim, sen qishning qahridan qo‘rqma. Aksincha, mana shu chiroyli faslni ayozi va qori bilan o‘zingga o‘rtoq qilib ol. Ana shunda bu fasldan cho‘chimaysan. O‘qish va ishlaringni bajarishda davom etasan. Har yili uni sog‘inib kutasan.

Shu kundan boshlab ertalabki badantarbiya mening sevimli mashg‘ulotimga, qish fasli esa yaqin o‘rtog‘imga aylandi.

1. Matn qaysi fasl haqida ekan?
2. Qish faslida tabiatda yana qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
3. Siz qish faslida bo‘sh vaqtingizni qanday o‘tkazasiz?

Qish fasliga taalluqli bir nechta so‘z topib ayting. Masalan, qor, ...

Izg‘irin Izzatni izillatdi.

# QORQIZ

Anvar Obidjon

Yo‘laklarim – olmos qor,
Ko‘ylaklarim – olmos qor,
Sochlarim ham olmos qor,
Tojlarim ham olmos qor.

Oqqina oqqush – oqqizman,
Qorbobo qorgan qorqizman.
Yo‘ymang meni sho‘r tuzga,
O‘xshatmanglar g‘irt muzga.

Tilim novvot, qaynoqdir,
Ko‘nglim yumshoq, qaynoqdir.
Oqqina oqqush – oqqizman,
Qorbobo qorgan qorqizman.

1. She’r kim tomonidan aytilgan?
2. She’r qahramonining nomi nima uchun “Qorqiz”?

1. She’r mazmuniga asoslanib Qorqizni ta’riflang.
2. She’rdagi aytilishi o‘xshash bo‘lgan so‘zlarni jufti bilan o‘qing.

Masalan: Yo‘laklarim – ko‘ylaklarim.

Shirinning shirin choyiga
Shiringina shirmoy non!

# AYRILGANNI...

Latif Mahmudov

Kuz kelishi bilan barglar qo‘ng‘ir tusga kirib, daydi shamolning hamlasiga dosh berolmay chirt-chirt uzilib to‘kilisharkan. Shunday bo‘lsa ham biror barg o‘z qismatidan nolimas ekan. Ammo bir o‘jar barg o‘z sheriklaridan ajralib, novdaga mahkam yopishib olibdi.

– Yur biz bilan, – deyishibdi o‘rtoqlari, – yolg‘iz qolma!

– Yo‘q, – debdi o‘jar barg, – sizlarga o‘xshab qor-yomg‘irlar ostida qolib, chirib ketaymi?

– Nega unday deysan?! – debdi o‘rtoqlari. – Biz ona yerga singib madad beramiz, sharofatimiz bilan kelgusi yil yangi barglar ko‘karadi, shunda qayta yasharamiz. Yolg‘iz qolma, qor-bo‘ronlarda holing ne kechadi?

– Mayli, – debdi o‘jar barg, – sizlarga qo‘shilib oyoqosti bo‘lganimdan ko‘ra yolg‘iz yashaganim afzal!

O‘rtoqlari uni gapga ko‘ndirolmay afsus bilan yerga bosh qo‘yishibdi.

Qish kelishi bilan hamma yoq qorga burkanib, izg‘irin shamol esibdi. O‘jar barg qalt-qalt titrab, vahima bilan novdaga mahkamroq yopishib olgan ekan, novda, vaqt g‘animatda pastga – sheriklaring oldiga tushib ol, degandek silkinibdi. Biroq o‘jar barg quloq solmabdi. Shamol esa uni har kuni turtkilayveribdi. Bechora barg holdan toyibdi va izg‘irin shamolning yana bir hamlasiga bardosh berolmay chirt etib uzilibdi-yu, chirpirak bo‘lib uchib ketibdi.

Shu ketgancha nom-nishonsiz yo‘qolibdi.

1. Hikoya nima haqida ekan?
2. O‘jar barg nima uchun do‘stlari bilan ketmadi?
3. Uning ahvoli nima bo‘ldi?
4. Hikoyadan qanday saboq oldingiz?

Ayrilganni ayiq yer,
Bo‘linganni bo‘ri yer.

Bozordan oldim bir dona,
Ochib ko‘rsam, ming dona.

Haligina Halima xola halloslab kelib ketdi.

# QOR

Zafar Diyor

Oppoq-tiniq, oppoq qor,
O‘ynab tushar osmondan.
Qor qo‘ynida o‘ynoqlab
Yurar yoshlar shod-xandon.

Mohir qo‘lli tabiat
O‘z hunarin ko‘rgizar...
– Marhabo, – deb bizlarga
Sepayotir zar va zar...

Issiq-issiq kiyinib,
Qor qo‘ynida o‘ynaymiz...
Oyoqlarda konkilar
Ham chang‘ilar, quvnaymiz.

1. She’r nima haqida?
2. Siz qish faslida qanday o‘yinlar o‘ynaysiz?

She’rdan bolalar o‘yinlari haqidagi qismini topib o‘qing.

Qishning qori — yozga dori.

Tohir tog‘a tog‘da tulki tutdi.

# TOG‘ MALIKASI

Zahro Hasanova

Hovlimizning qoq o‘rtasida yam-yashil archa bor. Har yili Yangi yil bayrami yaqinlashganda oila a’zolarimiz bilan archa-ni bezatamiz.

– Oyijon, bunaqa chiroyli archa hech qaysi o‘rtog‘imnikida yo‘q. Ular doim: “Kim ekkan?” – deb so‘rashadi.

– Ko‘p yillar avval rahmatli bobong olib kelgan ekan. Archa to o‘zini tutib ketgun-cha bobong ko‘p mehnat qilgan.

– Oyijon, rostdan ham archamiz 30 yoshdami? Unda mendan ancha katta ekanda-a? – deydi qiziqib qizim.

– Ha, bobong aytgan. Archa uzoq yillik o‘simlik. Bizning o‘lkamizda u, asosan, tog‘li yerlarda o‘sadi. Kitoblarda archaga “Tog‘ malikasi” deb ta’rif berilgan.

– Men uni faqat chiroyli bo‘lgani uchun ekishadi, deb o‘ylardim, – dedi qizim.

Bu orada archamiz bayram tusiga kirdi. Rang-barang o‘yinchoqlar, tovlanma zarlar jilvasi husniga husn qo‘shib, yanada go‘zal qilib yubordi. Ko‘zlari xuddi archa o‘yinchoqlaridek porlab turgan qizalog‘im archa atrofida gir-gir aylandi-da, o‘rtoqlarini chaqirib kelish uchun chopqillab chiqib ketdi.

1. Hikoyadan archa haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Yangi yil bayramiga qanday tayyorgarlik ko‘rasiz?
3. Archa nima uchun “Tog‘ malikasi” deyilgan?

Qorin qo‘yib Qorbobo,
Qo‘lqopini qidirdi.
Qorqiz qalin qalpog‘in
Qulog‘iga qo‘ndirdi.

# QORNING KO‘P XOSIYATI BOR

Ilyos Muslim

Bolalar, bilasizmi,
Qorning xosiyati bor.
Kech kuzdanoq dala, qir,
Keng o‘rmonlar qor qo‘msar.

Dehqonlar ilk kuzakdan
Kelasi yil g‘amin yer:
Don separ, shudgor qilar,
Ko‘klamga shay bo‘lar yer.

Qish qishligin qilmasa,
Ishga zarar yetadi.
Qor yog‘masa, don-dunni
Chumchuqlar yeb ketadi.

Qor yog‘ib, bo‘lsa ayoz,
Qochar gripp – betoblik.
Yaxmalak tog‘-qirlarda,
Yangraydi qo‘shiq, shodlik.

Shu sababdan hammaga
Sevinch olib kelar qor.
Bildingizmi, oq qorning
Qanday xosiyati bor!

1. She'rda qorning qanday xosiyati haqida aytilgan?
2. Qorning tabiatga qanday ta'siri bor ekan?
3. Qor va uning foydasi haqida yana nimalarni bilasiz?

Qishning qori — kuzga baraka.

Yumshoq, lekin paxta emas,
G'irchillaydi, taxta emas.
Daraxtlarni kiyintirar,
Oppoqqina, yaxtak emas.

## LAYLAKQOR

Qutbi Nosirova

Qor yog'ar elak-elak,
Yog'ar bo'lib charxpalak.
Qo'ngan zamon kaftimga
Erib ketar taftimga,
Quvnoq qor, oppoq qor.

Qorni yig'ib olaylik,
Bir shaklga solaylik.
Bolalar, keling, qani,
Qorbobo yasar G'ani.
Quvnoq qor, oppoq qor.

Qor yog‘ar hamon-hamon,
Kulamiz xandon-xandon.
Qizib ketdi o‘yin ham,
Shodlikni ko‘rar baham
Quvnoq qor, oppoq qor.

1. She’r nima uchun “Laylakqor” deb nomlangan?
2. Qishda bolalar qordan nimalar yasa-shadi?

1. Qish manzarasini chizing.
2. Qor haqida o‘qigan she’rlaringizni es-lang.

Qarg‘a qag‘illar qar-qar,
Qirni qalin qor qoplar.

## CHILLA CHIQIB

Tursunboy Adashboyev

Qish ayozi tobida,
Qor erinmay bo‘ralar.
Shox-shabba orasidan
Ovchi sergak mo‘ralar.

Ayiq g‘orga yo‘l oldi,
Piymasini ivitgan.
Quyon po‘stin tikibdi
O‘ziga oq tivitdan.

Yashil taroq archalar
Keng yozib qulochini –
Erinmasdan shamolning
Tarar paxmoq sochini.

1. Qish faslida o‘rmon hayvonlari nima qilishar ekan?
2. She’rda tasvirlangan qish manzarasiga yana qanday qo‘shimcha qila olasiz?
3. She’rda archa haqida nima deyilgan?

Oqtepada oq kaptar,
Ko‘ktepada ko‘k kaptar.

Hovuzga qopqoq bo‘lar
Ayni qish chog‘i.
Bahor nafasi yelgach,
So‘nar chirog‘i. (Muz)

## VATAN – MEHR QO‘RG‘ONI

Iskandar Rahmon

Er kishining ko‘nglida
Egarlangan ot bo‘lar.
Ona Vatan sevgisi
Diliga jo, yod bo‘lar.

Vatan – mehr qo‘rg‘oni,
Iymon uning qalqoni.
Er yigitlar Vatanning
Mard-u maydon posboni.

Ona Vatan ko‘rkidir,
Iftixori – yigitlar!
El boshiga ish tushsa,
Xaloskori – yigitlar!

Omon bo‘lsin hamisha
Jasur o‘g‘lon, yigitlar!
Qadamidan o‘t chaqnar,
Ko‘ksi qalqon yigitlar!

1. She’r kimlar haqida?
2. Vatan posbonlari tinchlik uchun nima ishlar qiladilar?

She’rdagi quyidagi so‘zlar ma’nosini tushuntirib bering: posbon, qalqon, iftixor, xaloskor, jasur.

Yigitning zo‘ri yurt qo‘rir.

Qobil, Qo‘chqorvoy, Qurbon
Qordan qurdilar qo‘rg‘on.

## BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

1. “Qish” mavzusidagi suratni kuzating va undagi xatolarni aniqlang. Nimalar bo‘lishi mumkin emas?

2. Rasmlardan foydalanib “qor” so‘zi qatnashadigan so‘zlar tuzing.

3. Rasm daftaringizga ulardan birining rasmini chizing.




1. Bo‘limdan nimalarni o‘rgandingiz?
2. Qish faslida tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
3. Qaysi she’r sizga yoqdi? Nima uchun?

Qish faslini rasmlarda ifodalang.

# OTALAR SO‘ZI – AQLNING KO‘ZI

## TILINGNI AVAYLA — OMONDIR BOSHING

Yusuf Xos Hojib

O‘quv va bilimning tilmochi tildir. Kishiga yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi. Qutbarakani ham, obro‘-e’tiborni ham kishi til orqali topadi. Tilga e’tibor bermasa, uni noo‘rin qo‘llasa, odamning boshi yorilishi mumkin.

Donolarning so‘ziga quloq sol. Ular:

– Ey til egasi, boshingni asra! – deyishgan. – O‘ziga omonlik tilagan har bir odam tilidan yaroqsiz so‘zini chiqarmasin. Bilib so‘zlangan so‘z donolik sanaladi. Bilimsizning so‘zi esa o‘z boshiga yetishi mumkin.

Hech qachon ko‘p gapirma. Oz so‘zlarga ko‘proq ma’no sig‘dir.

Tilingni avayla — omondir boshing,
So‘zingni avayla — uzayar yoshing.

1. Nima uchun tilga e’tibor berish kerak?
2. “Tilingni avayla – omondir boshing” deganda nimani tushunasiz?

Odamlar bilan so‘zlashganda matnda berilgan maslahatlarga amal qiling.

Bir tup tut, to‘rt tup turp.

Choyga solsam erib ketar,
Lazzatini berib ketar. (puebbO)

## IBN SINONING BOLALIGI

Maqsud Qoriyev

Abdulloh ma’rifatli inson bo‘lganligi uchun Afshonadagi xonadonida e’tiborli kishilar, shoir-u fozillar yig‘ilishar edi. Shunda olam voqealaridan ko‘ra ko‘proq she’riyat haqida gap ketardi. Bir kecha shunday yig‘inlarning birida Umarxon ismli afshonalik shoir Rudakiydan ruboiylar o‘qiy boshladi. Shoir oxirgi bandini yodidan chiqarib, jim bo‘lib qoldi. Shunda otasining bag‘rida o‘tirgan Husayn o‘rnidan turib davom ettira ketdi.

Majlis ahli jim bo‘lib qoldi. Abdulloh hayron. Bir tomondan, xursand bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xijolat, go‘dak bola mazkur she’rni qaydan o‘qigan, deb.

Umarxon bolani yana bir bor sinab ko‘rmoqchi bo‘lib:

– Rudakiyning yana boshqa g‘azalini bilursanmi? – deb so‘rab qoldi.

Husayn dadil turib, o‘qiy ketdi:

Odamlar qalbining charog‘i ilm,
Balodan saqlanish yarog‘i ilm...

– Balli, balli, umring ziyoda bo‘lg‘ay, – deya duo qildi shoir.

1. Hikoya kim haqida? Siz u haqida nimalarni bilasiz?
2. Ibn Sino bolaligida qanday bo‘lgan ekan?

1. Husayn o‘qigan misralar ma’nosini tushuntiring.

2. Ilm o‘rganish haqida maqollar ayting.

Sardorning sayroqi sariq sa’vasi subhidamda sayradi.

Yozib umrin tugatar,
Serharakat shu qadar.

## AMIR TEMUR HAQIDA HIKOYA

Bo‘riboy Ahmedov

Temurbek ziyrak, hamma narsani bilishga intiluvchan bo‘lib o‘sdi. To‘rt yoshga to‘lganida, otasi uni qishloq maktabiga olib borib, Ibodulla domlaning qo‘liga topshirdi.

Tarag‘ay Bahodir qo‘l qovushtirib:

– Bolamning savodini chiqarib bersangiz, – dedi.

Ibodulla domla bu soddadil va xushfe'l odamni juda yaxshi bilardi. Shuning uchun ham uni ochiq chehra bilan kutib oldi. Qo'lidagi tugunini olib, bolasini maktabga qabul qildi.

Tarag'ay bahodir chiqib ketganidan keyin domla uning o'g'lini oldingi qatorga o'tqizdi. Keyin unga murojaat qildi:

–Qani, o'g'lon, tur o'rningdan. Isming ne?

Yangi talaba dast o'rnidan turdi va: "Temur", – deb javob berdi.

– Barakallo, Temurbek, maktabimizga kelib yaxshi ish qilibsan. Yaxshi o'qisang, mulloyi zabardast bo'lursan. Sho'xlik qilib, kamhafsala bo'lsang, o'zingdan ko'r.

Temurbek boshini quyi solganicha qo'l qovushtirib, indamay turardi.

Temurbek to'rt yil Ibodulla domlaning qo'lida o'qidi. Savodi chiqqanidan keyin Tarag'ay bahodir o'g'lini Shahrisabzdagi madrasaga berdi. U maktabdagi singari madrasada ham yaxshi o'qidi.

Mamlakatni boshqarish ilmini esa otasidan o'rgandi. Buni otasi kechqurunlari turmush tashvishlaridan xoli bo'lgan paytlarida o'rgatdi.

Temurbek ustozi va otasining pand-nasihatlarini butun vujudi bilan tinglardi. Keyin bularga bir umr rioya qildi.

1. Hikoya kimning bolaligi haqida ekan?
2. Temurbek qanday ilmlarni o‘rganibdi?
3. U o‘rgangan bilimlaridan hayoti davomida qanday foydalandi?

Amir Temur haqida bilganlaringizni so‘zlab bering.

Bo‘ladigan bola boshidan ma’lum.

Qurilishga terak kerak,
Demak, ekmoq kerak terak!

Polizda koptok bo‘lib,
Dumalab yotar, to‘pmas.
Dehqon bobom avaylab
Oziq, suv berar, tepmas.

## NON – ULUG‘ NE’MAT

(Rivoyat)

Mirzo Ulug‘bek mulozimlari bilan ketayotganida, yo‘l yoqasida yotgan bir burda nonni ko‘rib qolibdi. Darrov otdan tushib, uni qo‘yniga solibdi. Mulozimlaridan biri:

– Sultonim, nega bizga buyurmay, o‘zingiz otdan tushdingiz? – deb so‘raganida, shunday javob beribdi:

– Nonni birinchi bo‘lib men ko‘rdim. Shunday ekan, uni yerdan olishni boshqa birovga buyurish mening nonga nisbatan hurmatsizligim bo‘lur edi. Nonning ulug‘ligi oldida mening podsholigim nima bo‘libdi?!

1. Mirzo Ulug‘bek nima uchun nonni bunchalik e’zozladi?
2. Mirzo Ulug‘bek haqida yana nimalarni bilasiz?
3. Non haqida qanday she’r va maqollarni bilasiz?

Nonga hurmat – elga hurmat.

Sharqdan bosh ko‘tarar u,
Har tong sog‘inar bizni.
Ko‘rmasak turolmaymiz
Olov yuzli qirmizni.

# NIMA EKSANG, SHUNI O‘RASAN

Shorasul Zunnun

Bir yigit ko‘zlari xiralashgan qari otasini hurmat qilmasdi.

Bir kuni chol bechora qo‘li titrab, osh suzib berilgan kosani tushirib sindirdi. Buni ko‘rgan kelini nordon so‘zlar aytib, ko‘nglini vayron qildi.

Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko‘chirdi. Kelin esa eri bergan yog‘och kosada qaynotasiga ovqat bera boshladi. Bu kabi muomaladan otaning ko‘ngli ozor topib, o‘ksinib yig‘lardi. Besh yoshli nevarasi bilangina tasalli topar edi. Bola uning yoniga kelib o‘tirar, ma’sumona so‘zlari bilan kuldirib, qayg‘u-alamlarini yengillatardi.

Bola bir kuni qo‘liga pichoq olib, yog‘ochni yo‘nib o‘tirardi. Shu paytda dadasi kelib qoldi. O‘g‘lini ko‘rib: “O‘g‘lim, nima qilyapsan?” – deb so‘radi. O‘g‘li yugurib kelib, dadasini quchoqlab oldi:

– Dadajon, siz buvamga yog‘och kosa keltirib bergan edingiz-ku, oyim o‘sha

kosada buvamga ovqat beradilar. Men ham yog‘och kosa yasayapman, katta bo‘lganimda oyim bilan sizga shu kosada ovqat beraman.

O‘g‘lining bu so‘zi yigitga qattiq ta’sir qildi. U ko‘z yoshi qilib, otasining huzuriga kirdi, tiz cho‘kib uzr so‘radi. Darrov uni issiq xonaga ko‘chirdi. Kelin ham qayn-otasini hurmat qila boshladi.

Ularning bu ishlaridan ota xursand bo‘ldi.

1. Ota nima uchun o‘g‘lidan xafa bo‘ldi?
2. O‘g‘il xatosini tushundimi? Bunga nima sabab bo‘ldi?

Alisher Navoiyning quyidagi misralarini o‘qib, mazmunini tushuntiring:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.

Boqi qoqini Soqiga sotdimi,
Soqi qoqini Boqiga sotdimi?

Singlimga o‘xshar o‘zi,
Aslo yumilmas ko‘zi.

# TA’ZIR

(Qissadan parcha)

Xudoyberdi To‘xtaboyev

Endi men sizlarga so‘lim qishloqda yashaydigan, o‘zi xiyla o‘yinqaroq bo‘lgan Bahromjon degan bir bola haqida hikoya aytib bermoqchiman. Dadasi, onasi har kuni dalaga ketib, Bahromjon uyda buvijoni bilan yolg‘iz qolardi. Buvijoni:

– O‘g‘lim, narigi uydan ko‘zoynagimni olib chiqib ber! – desa, Bahromjon:

– Xo‘p bo‘ladi, – derdi-da, o‘yinchoqlarini o‘ynab o‘tiraverardi.

Biroz fursatdan so‘ng buvijoni yana:

– Ko‘zoynak, deyapman senga, – derdi.

Bahromjon esa boshini ham ko‘tarmay:

– Hozir deyapman-ku, – deya o‘yinga battarroq berilib ketardi.

Oxiri, buvijoni o‘rnidan turib, ko‘zoynagini o‘zi olib chiqishga majbur bo‘lardi. Ertasi ham shu, indiniga ham shu – Bahromjon-ning qulog‘iga hech gap kirmasdi.

– Buvijon! – dedi bir kuni Bahromjon. – Qornim juda ochib ketyapti, non bering.

Buvijoni ko‘rpa qaviyotgan edi.

– Xo‘p bo‘ladi, – dedi-yu, o‘rnidan qo‘zg‘almay ishini qilib o‘tiraverdi.

– Non deyapman, – dedi Bahromjon betoqat bo‘lib.

– Xo‘p deyapman-ku, – deb qo‘ydi bu-vijoni beparvo bir ohangda. Biroz fursat-dan so‘ng Bahromjon yer tepinib:

– Non! – deb qichqirdi.

– Hozir! – dedi-yu, buvijoni ko‘rpaning bu etagini tugatib, narigi etagini qavishga tushib ketdi. Yana biroz fursatdan so‘ng Bahromjon to‘satdan yumshab:

– Buvijon, ignaga ip o‘tkazib beraymi? – deb qoldi o‘zidan o‘zi.

Nega desangiz, shu paytda Bahromjon “Buvijonimning aytganini qilmay xato qilgan ekanman-da”, deb o‘zicha afsuslanayotgan edi. Buni sezgan buvijoni o‘rnidan turib:

– Tilingdan aylanay, – deb qo‘ydi.

O‘sha kundan boshlab Bahromjon buvijoni aytgan ishni darrov bajaradigan bo‘lib qoldi.

1. Bahromjonning qaysi ishi sizga yoqmadi?
2. Bahromjon nima uchun birdan o‘zgarib qoldi?
3. Buvisi Bahromjonga qanday saboq berdi?

Matndan xulosa chiqaring va fikrlaringizni daftaringizga yozing: Qanday bola bo‘lish kerak?

Yaxshilik nur keltirar,
Yomonlik — zulmat.

## MEHMON KELDI

Aziz Abdurazzoq

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, Ra’nobonu degan qizcha bor ekan. U uyda biror ish qilishi kerak bo‘lsa, oyisining aytishini kutmay bajarar ekan. Bir kuni u ertalab oyisiga:

– Oyijon, bugun tushimda menga chiroyli ko‘ylak olib kelganmishsiz, – debdi.

– Yaxshi tush ko‘ribsan, – debdi oyisi. – Demak, mehmon kelar ekan.

Bu gapni eshitgan Ra’no oyisi bilan dadasi ishga ketishgach, uy va hovlini supurib, hamma yoqni chinniday qilib qo‘yibdi. Ammo o‘sha kuni hech qanday mehmon kelmabdi-yu, kechqurun oyisi Ra’noga xuddi tushida ko‘rganiday ko‘ylak olib kelibdi.

Bir kuni ertalab choy ichib o‘tirishganida Ra’no oyisiga:

– Qarang, oyijon, bilmasdan ikkita non tishlab qo‘yibman, – debdi.

– Mehmon kelarkan-da, – debdi oyisi.

Yana bir kuni ertalab nonushtada oyisiga choy quyilgan piyolasini ko‘rsatibdi.

– Buni qarang, oyi, – debdi Ra’no. – Choyimda bitta cho‘p tippa-tik turibdi.

– Yaxshi-ku, – debdi oyisi. – Demak, mehmon keladi.

Ra’no xursand bo‘lib, oyisi bilan dadasi ishga ketgach, hamma joyni supurib, tozalabdi, idishlarni yuvibdi. Dasturxon yozib, non, shirinlik va mevalarni terib qo‘yibdi. Keyin ko‘cha eshigini ochib, mehmonlarni

kutibdi. Ammo bu gal ham mehmon kelmabdi. Ra’no xo‘rsinib uyga kirib ketibdi.

Shu-shu, Ra’no mehmon kelib qolar deb, har kuni hamma yoqni ozoda qilib qo‘yadigan bo‘libdi. Bir kuni hovlisidagi o‘rikning eng uchida zag‘izg‘on sayrabdi. “Mehmon keladi”, deb o‘ylabdi Ra’no. Zag‘izg‘on ko‘cha tomonga qarab uchgan ekan, Ra’no yugurib ko‘chaga chiqibdi.

– Zag‘izg‘on, zag‘izg‘on, mehmonlarga ayt, biznikiga kelishsin! – deb qichqiribdi.

Shu payt:

– Mana, mehmon bo‘lib kelyapmiz, – degan ovoz eshitilibdi.

Ra’no qarasa, buvisi bilan xolasi ko‘chadan o‘tishayotgan ekan. Ra’no yugurib ularning oldiga boribdi va quchoqlashib ko‘rishibdi. Ular uyga kirganlarida hamma yoq ozoda va tartibli bo‘lgani uchun Ra’noni rosa maqtashibdi.

1. Ra’noning oyisi nima uchun bunday yo‘l tutdi?
2. Siz ham shu hikoyada ishtirok etishni xohlarmidingiz?
3. Siz uyda mehmonlarni qanday kutasiz?

Mehmonlar haqida maqollar yoki urf-odatlarni ayting.

Mehmon otangday ulug‘.

## KICHKINA ALISHER

Zamira Ibrohimova

Alisher Navoiy bolalik paytlaridayoq juda ziyrak, aqlli, odobli bola bo‘lgan ekan. Uch yoshidan boshlab she’r, musiqa eshitishni nihoyatda yaxshi ko‘rar ekan. U juda tiyrak bo‘lganligi uchun otasi uni to‘rt yoshida maktabga beribdi. Kichkina bo‘lishiga qaramay, juda ham yaxshi o‘qibdi.

Biroq Alisherning Hirotda o‘qishi uzoqqa cho‘zilmabdi. Urush, janjallar-u to‘polonlar

sabab ko‘pgina oilalar qatori Alisherlarning oilasi ham ko‘chib ketishga majbur bo‘lishibdi.

U paytlarda odamlar uzoq joylarga boradigan bo‘lishsa, tuyalarda, ot-aravalarda ketishgan. Yo‘l uzoq, havo issiq bo‘lgani uchun ular kunduzi dam olib, kechasi yo‘l yurishgan. Bir kuni kechasi Alisher ot ustida ketayotganida charchab, uxlab qolibdi. U otdan yumshoqqina qum ustiga sirg‘alib tushib ketibdi va uxlayveribdi. Karvondagilar buni bilishmay, ketishaveribdi.

Ertalab, quyosh chiqqanda Alisher uyqudan uyg‘onibdi. Atrofga qarab qo‘rqib ketibdi, yuragi duk-duk uribdi. Birdan o‘z otini ko‘rib qolibdi. U ketib qolmay, egasi uyg‘onishini kutib turgan ekan. Alisher rosa xursand bo‘lib ketibdi. U darhol otining yoniga borib, uni mehr bilan silab-silab qo‘yibdi. So‘ng sinchkovlik bilan qumlarga qarabdi. Otlarning izini qidiribdi. Otlar izi quyosh chiqadigan tarafga cho‘zilib ketgan ekan. Alisher ham otiga minib, ana shu izlar bo‘ylab yo‘lga tushibdi va omon-eson ota-onasining yoniga yetib boribdi.

1. Kichkina Alisher haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Siz yosh Alisher kabi yolg‘iz qolsangiz, qanday yo‘l tutar edingiz?

Baxt belgisi ilm va aqldir.

Uch uchuvchi uch marta uchib,
Tog‘ning uchini quchdi.

## ALISHER NAVOIY

Xurshid Davron

Mir Alisher Navoiy
Bobomizning kitobi
Yoritar dilimizni
Misli bahor oftobi.

Mir Alisher Navoiy –
G‘azal mulkin sultoni.
Yaxshilikka chorlaydi
Uning she’r-u dostoni.

Mir Alisher Navoiy
Merosi tamom bo‘lmas.
Nabiralar bor ekan,
Bobomiz nomi o‘lmas.

1. She’rda Alisher Navoiy haqida nima deyilgan?
2. “G‘azal mulkining sultoni” degan ta’rif nimani anglatadi?
3. Alisher Navoiy haqida yana nimalarni bilasiz?

Boboning tol ekkani —
O‘ziga nom tikkani.

Boqi botir buzoq boqar.

Ertak, she’r-u matnlar
Yashar bir mamlakatda.
Dunyoni o‘rganishda
Uning xizmati katta.

## BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

1. Idishlardagi bo‘g‘inlarni faqat bir marta ishlatib to‘g‘ri o‘qisangiz, bo‘limda o‘rganilgan mavzuga taalluqli hikmatli so‘z hosil bo‘ladi.

Ni ek shu sang, ni o‘ ma ra san.

Hikmatli so‘z bo‘limdagi qaysi mavzuga taalluqli? Ma’nosini tushuntiring.

2. To‘g‘ri va juda tez o‘qish. Kim bir nafasda ko‘p va to‘g‘ri o‘qisa, g‘olib bo‘ladi:

Besh barmog‘im, besh barmoq,
Birinchisi bosh barmoq,
Ikkinchisi ko‘rsatkich,
Beshinchisi – jimjiloq.

3. Rebusni to‘g‘ri yechsangiz, o‘zbek xalq maqollaridan birini o‘qiysiz.




1. Bo‘limda qaysi buyuk vatandoshlarimiz haqida bilib oldingiz?
2. Bobolarimiz qanday saboq berishdi?
3. Bo‘limdagi qaysi matn va hikoya qahramoni sizga yoqdi?

O‘rganganlaringiz asosida uyda “Yaxshi insonlar qanday bo‘lishi kerak?” degan savolga javob yozib keling.

# ZUMRAD BAHOR – BAHRIDILING OCHAR

## BAHOR KELDI

Aziz Abdurazzoq

Uchib keldi ko‘llarga
Turna-yu g‘oz, o‘rdaklar.
Keling, biz ham yo‘llarga
Otlanaylik, o‘rtoqlar.

Borib tabrik etaylik
Do‘st, qadrdon – hammani.
Bog‘-rog‘larga ekaylik
O‘rik, gilos, olmani.

Har bahorda gullasin,
Gullari to‘p-to‘p bo‘lsin.
Qurimasin, so‘lmasin,
Hosili ko‘p-ko‘p bo‘lsin.

1. She’r qaysi fasl haqida ekan?
2. Bahor faslida tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
3. Dalada qanday yumushlar bajariladi?

Kun g‘amini sahar ye,
Yil g‘amini bahor ye.

Gulnor gulzor oralab gullarni saraladi.

Suv ostida makoni,
Chuvalchang uning joni.
Qo‘lda turmaydi, silliq,
Tanga to‘nli u ...

## BOBURNING FAZILATLARI

G. H. Pant,
hind tarixchisi

Bobur ismi “sher” ma’nosini anglatib, o‘zi ham ismi jismiga monand kishi bo‘lgan. Kelishgan qaddi-qomati va benihoya kuchliligidan tashqari dovyuraklikda, epchillikda, chaqqonlikda uning oldiga tushadigan odam topilmagan.

Bobur uncha-muncha qiyinchiliklarni pisand etmagan, ayniqsa, ovda chinakam sher bo‘lib ketgan. U ko‘pincha ikki davangirday odamni qo‘ltiqlab olib, Agra

qal'asi devorlari ustida yugurib mashq qilgan. Bobur yana ajoyib suzuvchi va g'avvos ham bo'lgan. U yo'lida uchragan jamiki hind daryolarini suzib o'tgan.

"Boburnoma"ni o'qir ekansiz, Boburning aqlli va bilimli ekanligiga guvoh bo'lasiz. Bobur tabiatni jonidan yaxshi ko'rgan. Ayniqsa, tog'larni, daryolarni, bog'larni, yaylovlarni ko'rganda, zavq-shavqi tug'yon urib, misoli bulbuligo'yo bo'lib ketgan. U so'zamol notiq, iste'dodli shoir, mohir sarkarda, mehribon ota, or-nomusi kuchli inson bo'lgan.

Boburning ko'p ishlari poyoniga yetmay qolgan, shu sababdan ham o'g'li Humoyun keyinchalik uning ishini davom ettirgan.

1. Hikoyadan Bobur haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Uning ismi qanday ma'noni anglatar ekan?
3. Bobur qanday inson bo'lgan?

Yaxshi xislat — go'zal fazilat.

Qopqon qop yonida,
Qop qopqon yonida.

# KO‘KLAM SEP YOYDI

Do‘stjon Matjon

Ko‘klam yoydi sepini
Shahar-u qishloqlarga.
Gulladi o‘rik, bodom,
Chiroy berdi bog‘larga.

Maftun bo‘lib o‘lkamga
Uchib keldi turna, g‘oz.
Quvnoq qo‘shig‘imizga
Qushlar bo‘ldi jo‘rovoz.

Taralar gullar atri,
Osmon moviy, xushhavo.
Mening ona Vatanim,
Eh, naqadar dilrabo.

1. She’rda tabiatda bo‘ladigan qanday o‘zgarishlar tasvirlangan?
2. Bahorda qanday qushlar uchib kelar ekan?

Qalampirli qattiq qurut Qodirning qaysi qo‘lida?

Onam, singlim, opamning
Qo‘llarida o‘ynaydi.
Hovli, uyni har kuni
Tozalaydi, to‘ymaydi.

# BIR TUP SADA

Mahmud Murodov

## 1

Qishlog‘imizning o‘rtasidan oqadigan ariq bo‘yida katta sada bor. Sadaning qalin, quyuq shoxlari yerga tangaday oftob tushirmaydi. Tagi g‘ir-g‘ir shabada.

Qishloqning bir tomoni poyonsiz qir. Sap-sariq, bo‘liq boshoqlarini egib, chay-qalib turgan bug‘doylar xuddi oltin de-ngizga o‘xshab chayqaladi.

## 2

G‘allakorlarning ko‘pchiligi tushda shu sada ostida yig‘ilishadi. Samovarda shaqillab qaynagan xushbo‘y ko‘k choydan ichib, hordiq chiqarishadi. Ana shunda keksa-larning: “Norbobo ko‘p yaxshi ish qilgan-da! Hozir maza qilib o‘tirishimiz o‘sha odam tufayli”, – deganlarini ko‘p eshitganman.

## 3

Bir kuni dadamdan:

– Dada, Norbobo kim o‘zi? – deb so‘radim. Dadam boshimni silab javob berdi:

– Norbobo qishlog‘imizning mehnatkash, keksa otaxoni edi. Rahmatli o‘sha sadani yoshligida allaqayerdan keltirib o‘tqazgan ekan. Norboboni tilga olishlarining boisi shu.

Shu payt ko‘zimga kichkinagina sada o‘tqazayotgan Norboboning bolalik payti ko‘ringandek bo‘ldi.

## 4

Qaysi bir kuni buzoqni podaga haydayman desam, u bug‘doyzorga urib ketaverdi. Tayoq topolmay, shoshganimdan dadam ekib qo‘ygan o‘rik ko‘chatini sug‘urib olibman. Shuni eslab qizarib ketdim. Keyin dadamga bu voqeani aytib, uzr so‘radim. “Endi sen ikki tup ko‘chat o‘tqazishing kerak. Biri sug‘urib olganing o‘rniga, ikkinchisi esa o‘z hissang”, – dedi dadam.

1. Hikoyaning asosiy qahramoni kim? U qanday inson bo‘lgan ekan?
2. Daraxt ekishning xosiyati nimada ekan?
3. Siz ham ko‘chat o‘tqazganmisiz?

Matnning qismlariga sarlavha qo‘ying va qayta hikoya qiling.

Bir kishi ariq qazir,
Ming kishi suv ichar.

To‘lqin tog‘a tunov kuni tog‘da tulki tutdi.

## GUNAFSHA

Qudrat Hikmat

Ariq bo‘yin yoqalab
Borardim uy tomonga.
Yoni qalin maysazor,
O‘xshar jajji o‘rmonga.

Ko‘rib qoldim bir mahal:
Ochilibdi gunafsha.
Egilib salom berdi,
Sevinib dedim: Yasha!

Sen bahorning elchisi,
Sendan yashnar dalalar.
Yellarning qanotida
Xush bo‘ylaring taralar.

Shoir nima uchun gunafshani “bahorning elchisi” deydi?

1. Shoirning gunafshaga aytganlarini she’r-dan topib o‘qing.

2. Siz yana qanday bahor gullarini bilasiz? Ulardan bir nechtasining rasmini chizing.

Do‘stingga qo‘shiq ayt,
Mehringni qo‘shib ayt.

Tez aytgin-u, tez gapir,
Tez aytganga bir patir.

## TANBEH

Latifjon Mansurov

Maktabdan qaytsam hovlimizdagi supada onam choy ichib o‘tirgan ekan. Onamning nurli chehrasiga ko‘zim tushdi-yu, “Somaleyko‘m”, deb salom berib yuborganimni o‘zim ham sezmay qoldim.

– Vaalaykum assalom, chirog‘im. Qani, beri kel-chi!

Onajonim shunday dedi-da, meni yoniga chorladi.

– Voy o‘zimning dono o‘g‘lim. Yaxshi baholarga o‘qib qaytdingmi? – deya meni bag‘riga bosdi.

Onamga yuzlanib maqtandim:

– Onajon, bugun “besh” baho oldim.

– Barakalla, chirog‘im, barakalla, – deya maqtab qo‘ydi onam.

Onajonimning bu maqtovidan ko‘ksim tog‘dek ko‘tarildi. Keyin onam yumshoqqina gap boshladi:

– Bilasanmi, o‘g‘lim, senga ikki og‘izgina gapim bor. Hozir sen kirib kelganingda: “Somaleyko‘m”, – deya salom berding. Aslida salomingga alik olmasligim kerak edi. Sababi “Somaleyko‘m” so‘zining ma’nosi: “Yomonlik tilayman”, – degani. “Assalomu alaykum” so‘zining ma’nosi esa: “Sizga salomatlik tilayman” – deganidir. Kattalarga salom berayotganingda qo‘lingni ko‘ksingga qo‘yib: “Assalomu alaykum”, – deya to‘g‘ri salom berishni unutma.

Shu-shu bo‘ldi-yu, onamning tanbehini qulog‘imga quyib oldim. Har gal o‘zimdan kattalarga salom berganimda uning tanbehi quloqlarim ostida jaranglayotgandek tuyuladi.

1. Matn qahramoni kimdan tanbeh eshitdi?
2. “Somaleyko‘m” va “Assalomu alaykum” so‘zlarining ma’nosi qanday ekan?

To‘g‘ri salomlashish odobi qanday bo‘lishini ko‘rsatib bering.



Toshmat tog‘dan tosh tashidi.

Qozonda emas, qaynaydi,
Qishin-yozin tinmaydi. (bolnB)

# MOMAQAYMOQ

Quddus Muhammadiy

Erta ko‘klam elchi guli –
Momaqaymoq, qoqio‘tjon.
Keng ko‘chamiz chekkasini
Bezatdi tilla marjon.

Ko‘rsang ko‘zing quvnaydi,
Ko‘klam husni gulparcha.
Mevasi undan qiziq,
Momiq ukpar, uchar shar.

Chaqaloq qalpog‘idek
Yer husniga husn qo‘shar.
Shamolda uchar o‘ynab,
Bolalar chopar, tutar.

– Momaqaymoq, qoqio‘tjon,
Ko‘risharmiz endi qachon?
– Yana ko‘klam kelganda,
Yerda maysa kulganda.

1. She’rni o‘qiganda ko‘z oldingizga qanday manzara keldi?
2. Siz qoqio‘t gullaganini ko‘rganmisiz?
3. Ushbu bo‘limda yana qaysi bahor gullari bilan tanishdingiz?

Momaqaymoq rasmini chizing.

Dum-dumaloq oq uydan
Jajji qush uchib chiqar.
“Chiy-chiy”lar murg‘ak dili,
Olamni quchib chiqar.

## KARIM CHUMOLINING TILINI BILARKAN

Hamid Jalolov

Bir kuni bolalarni o‘qituvchisi dalaga olib chiqdi. Bahor emasmi, hamma yoq yashil libosga burkangan. Atrofdagi chuchmoma, gunafsha, lolalarni aytmaysizmi, darrov bolalarni o‘ziga rom qildi. Chug‘urlashganlaricha gul terishga tushib ketishdi. Karim ham juda quvondi. U tabiatni juda sevadi. Balki otasining tabiat o‘qituvchisi bo‘lgani uchundir.

Ana, u bir to‘p lolalar qarshisida hayratlanib turib qoldi. Lola tagida g‘uj-g‘uj chumolilar tinmay yugurishadi. Ajoyibda bu chumolilar, shoshganlari-shoshgan. Og‘zilarida nimalar bo‘lmaydi: bug‘doy, cho‘p, non ushoq.

Karim chumolilarga uzoq tikilib qoldi. Keyin o‘rnidan lip etib turdi-yu, nariroq-

da lolalardan guldasta qilayotgan Nodirani chaqirdi.

– Nima deysan? – dedi Nodira istar-istamas.

– Bilasanmi, hozir yomg‘ir yog‘adi, – dedi Karim.

Nodira osmonga qaradi. Oftob ko‘zini qamashtirdi.

– Seni qara-yu, vahima qilasan-a! Oftobni qara, havo issiq.

– Mana ko‘rasan, yomg‘ir yog‘adi. Ana, chumolilar inlarini berkitishyapti, – dedi Karim.

Sal o‘tmay osmonni quyuq bulut qopladi. Keyin rosa jala quydi. Bolalar o‘zlarini panaga olishar ekan, Nodira sekin Karimga qaradi. “Qiziq, Karim chumolilar tilini bilar ekan-da”, – deb qo‘ydi o‘zicha.

1. Karim yomg‘ir yog‘ishini qanday aniqladi?
2. Siz ham ob-havo o‘zgarishini oldindan bila olasizmi? Bu nima uchun kerak?

Ko‘p bilgan oz so‘zlar,
Oz so‘zlasa ham soz so‘zlar.

Qatorma-qator,
Zanjirdek o‘tar.

# ALISHERNING ONASI

Abdulla Oripov

Bilmam, qanday ayol bo‘lgan
Alisherning onasi.
Balki uning aqliga ham
Lol qolgan zamonasi.

Balki uning ko‘zlarida
Bo‘lgan og‘ir bir xayol.
Balki g‘amgin bir zotdir u,
Balki sho‘xchan bir ayol.

Balki buyuk farzandiga
Terib kelgan chechaklar.
Balki tunlar unga bedor
Aytib bergan ertaklar.

Mayliga, u kim bo‘lmasin,
Yolg‘iz bir so‘z ma’nosi:
Alisherning onasi u,
Navoiyning onasi.

1. She’r kim haqida ekan?
2. Alisher Navoiyning shoir bo‘lishida onasining o‘rni qanday bo‘lgan?

Onalar haqida maqollar ayting.

Ona – daraxt, bola – meva.

# ONAM

Umarali Qurbonov

Qo‘lda chaqaloq ukam
Yig‘lar “inga-inga”lab.
Yurak-bag‘rim ezilar,
Yoshli ko‘ziga qarab.

Alla aytsam ko‘nmaydi,
Boqmaydi hech yuzimga.
“Tobi qochgan, hoynahoy”,
Dedim o‘zim o‘zimga.

Onam kelib oldilar,
Yig‘isi tindi-qoldi.
Go‘yo yomg‘ir o‘rnini
Kun chiqib, oftob oldi.

Shunda qalbim charaqlab,
Onajonim quchganman.
Ta’zim qilib, bosh egib,
Dildan qasam ichganman:

Oyga uchsam, onamni
Olib uchay kiftimda.
Gard qo‘ndirmay bir umr,
Ko‘taraman kaftimda.

1. She’r kimning nomidan aytilgan?
2. Siz onangizga qanday yordam berasiz?

Reja asosida “Mening onam” mavzusida og‘zaki hikoya tuzing:

1. Mening onam.
2. Onam ishdan kelsalar.
3. Men onamga yordamchi.

Ona kulsa, xona to‘lar,
Ota kulsa, g‘aming ketar.

Qafasga qoplon qamalib qoldi.

## NAVRO‘Z – TABIAT TANTANASI

21-mart bahoriy tengkunlik, tun va kun tenglashgan palla. Ajdodlarimiz bu kunni qadim-qadimdan tabiatning uyg‘onishi, ayoz qish tugab, iliq mavsumning boshlanishi sifatida nishonlab kelishgan.

Navro‘z – tabiat tantanasi, ekologik bayram, mehr-oqibat, mehnat va tinchlik ayyomidir. Yurtimizda har yili Navro‘z bayrami arafasida umumxalq hashari o‘tkaziladi. Katta-yu kichik ko‘chaga chiqib, ariqlarni tozalaydi, atrofni supurib-sidiradi, daraxtlarni oqlab, xilma-xil gullar ekadi.

Yurtimizda Navro‘z qadimdan bayram qilib kelingan. Navro‘z yilning boshlanish kuni hisoblangan.

Qadimgi Xitoy yilnomalarida ajdodlarimiz har bahor qir-adirlarda katta tantana bilan yangi yilni kutib olishi to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Navro‘z bayramida milliy o‘yinlar o‘ynalgan. Xalq kuy-qo‘shiqlari ijro etilgan. Bayram shod-u xurramlik bilan o‘tkazilib, butun yil yaxshi kelishi umid qilingan.

(“Buloqcha” bolalar jurnalidan)

1. Matndan qanday yangiliklarni bilib oldingiz?
2. Siz Navro‘z saylida qatnashganmisiz?

Navro‘z bayrami haqida og‘zaki hikoya tuzing.

Yilning yaxshi kelishi bahordan ma’lum.

# POLVONMAN

Qambar Ota

Polvonman-o, polvonman,
Kuchli deb nom olganman.
Bilaklarimga qarang,
Mushaklarim tap-tarang.

Sportning qadrin bilib,
Chiniqqanman mashq qilib.
Ko‘kragi naq qalqonman,
Pahlavonman, polvonman.

Ishlatmayman hech firib,
Raqibimga chil berib.
Yelkamdan tez oshirib,
Qo‘yadirman shoshirib.

Mardlar halol kurashar,
Kurash menga yarashar.
Jasur, botir yuragim,
Yerga tegmas kuragim.

1. She’r kim haqida ekan?
2. Polvon bo‘lish uchun nima qilish kerak?
3. Siz qaysi sport turiga qiziqasiz? Sport bilan shug‘ullanasizmi?



Sog‘ yuray desang, ozoda bo‘l.

# QALDIRG‘OCH

To‘lan Nizom

O qaldirg‘och, qaldirg‘och,
Qora ko‘zlaring qiyg‘och.
Duming o‘xshar xivichga,
Qanotlaring qilichga.

Loy ko‘tarib shiftda san,
In solishga ustasan,
Me’mormisan, ayt, o‘zing,
Buloqdek qaynar so‘zing.

Qish kelganda ketasan,
Janub tomon yetasan.
Qaytganingda sen takror,
Yurtga keladi bahor.

O qaldirg‘och, qaldirg‘och,
Ayvonimda bola och!

1. She’r qaysi qush haqida ekan?
2. Qaldirg‘och qaysi faslning darakchisi?

1. She’rdan qaldirg‘och ini haqidagi misrani topib o‘qing.
2. Rasm daftaringizga qaldirg‘och rasmini chizing.

Turg‘un to‘rtta to‘rg‘ayni to‘rga tushirdi.

## BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

**Gunafshaxon:** Assalomu alaykum, aziz o‘quvchilar! Men Bahoroyning qizi Gunafshaxon bo‘laman. Bugun siz bilan onam huzuriga sayohat qilamiz. Yo‘lda uchragan qiziqarli jumboqlarni birga hal etamiz.

1. : Bahoroy bag‘ri bayramlarga boy. Onajonlarimiz bayrami ham bahor faslida nishonlanadi. Ilonizi yo‘ldan borib sharlardagi harflarni doirachalarga joylashtiring.

Belgilab qo‘yilgan doirachadan boshlab o‘qisangiz, onalarimiz haqidagi maqol kelib chiqadi.




2. : Barakalla, do‘stlarim! Endi shoir Shukur Sa’dullaning she’rini o‘qiymiz. She’rni o‘qiyotganda, rasmlar o‘rniga so‘zlarni qo‘yib, to‘g‘ri va tez o‘qing.

Keldi bahor, bahor,
Erib bitdi oppoq qor.
Uchib keldi larjon,
lar taqdi marjon.
Suvlar oqar shildirab,
boqar miltirab.
lar yayrashar,
Sho‘x lar sayrashar.

3. : Endi qiziqarli savollarga o‘tamiz.

- Daftaringizga quyidagi kataklarni chizing. **Momaqaymoq** va **chuchmoma** so‘zlarini katakchalarga joylashtiring:

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

- **Kamalak** so‘zidagi ikki harf o‘rniga boshqa harflarni qo‘yib, bahor taomlaridan birining nomini hosil qiling.

1. Bahor faslida tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
2. Bo‘limdagi qaysi she’r yoki hikoyada bahor tasvirlangan?
3. Qaysi matnlarda onajonlarimiz haqida yozilgan?

# QUSHLAR, HAYVONLAR – BIZNING DO‘STIMIZ

## BULBULJONIM KUYLASIN

Quddus Muhammadiy

Bulbuljonim kuylasin,
Yoqar kuyi jonimga.
Tinglagim kelaverar,
Sayrasa gulbog‘imda.

Kuyi ajib yoqimli,
Ko‘nglimga zavq bag‘ishlar.
Vatanim chamanzorin
Bulbuljonim olqishlar.

Tinglayman-u, qonmayman,
Qo‘shig‘ida ne sir bor?!
Jon quloq-la anglayman,
Mag‘zin chaqdim har bahor.

1. She’rda bulbul qanday tasvirlangan?
2. Bulbul haqida yana qanday ertak yoki she’rlarni o‘qigansiz?
3. Siz yana qanday qushlarni bilasiz?

Bulbulga bog‘ yaxshi,
Kaklikka tog‘.

Gul ustida jajji ashulachi.

## CHUMCHUQ BOLA

O‘ktam Usmonov

Boboxon chumchuq bolani rosa qiynadi: suvga solib suzdirdi, qanotlarini yoyib, hilpillatdi. Keyin oyog‘iga ip bog‘lab, ko‘chaga olib chiqdi. Ko‘chada Tal’atga duch keldi. Tal’at uni ko‘rdi-yu, qovog‘i solindi. Boboxon judayam o‘jar bola edi. Tal’at shosha-pisha yonini kovlashtirdi: cho‘ntagida yarimta o‘chirg‘ich bilan kecha ochgan qizil qalami bor ekan.

– Boboxon, chumchuqni qayerdan olding?

– Bug‘doyzordan, chigirtka tutayotganimda do‘ppim bilan urib yiqitdim.

– Alishmaysanmi?

Boboxon yalt etib Tal’atga qaradi, so‘ng bir narsa o‘yladi, shekilli:

– Alishaman, nimang bor? – dedi hovliqib.

– Mana rangli qalam, agar xo‘p desang, o‘chirg‘ichni ham beraman.

Boboxon bilagiga o‘rab olgan pishiq, ingichka ipni bo‘shatib, Tal’atdan o‘chirg‘ich bilan qalamni oldi-da, chumchuqni berdi. Keyin qiziqsinib:

– Buni alishvolib nima qilasan? – dedi.

– Hozir bilasan nima qilishimni.

Tal’at chumchuq bolaning oyog‘idagi ipni avaylab yechdi. Yuragi duk-duk urayotgan bechora qushchani bir-ikki siladi-da, keyin birdan osmonga qo‘yib yubordi. “Bor, uchaver!” So‘ng Boboxonga qaradi.

Boboxon goh qo‘lidagi o‘chirg‘ich bilan qalamga, goh pat-pat qanot qoqib uchib ketayotgan chumchuqqa, goh istehzo bilan kulimsirab turgan Tal’at o‘rtog‘iga javdirab, nima qilishini bilmay qolgan edi.

1. Hikoya qahramonlarining qaysi biri to‘g‘ri ish qildi?
2. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?



Birov buzar, birov tuzar.

Asad asil asal yaladi.

# TUYA, FIL VA OLMAXON

(Ertak)

**1**

Bir kuni tuya va fil yer haydamoqchi bo‘lib, olmaxondan dastyor topib berishni so‘rashibdi.

Olmaxon ularga dastyor topib berishni va’da qilibdi.

Ertasiga fil dalaga yo‘l olibdi va yer haydab, urug‘ sepibdi. Oradan birmuncha vaqt o‘tgach, tuya dalaga boribdi-da, ekinlarni o‘toq qilibdi. Keyin fil kelib ikkinchi o‘toqni qilibdi. Oxir ekinlar pishib qolibdi. Tuya o‘rib, fil ularni bog‘labdi.

Lekin shu o‘tgan vaqt ichida fil bilan tuya bir-birlari bilan sira to‘qnash kelmabdilar.

Bir kuni tuya olmaxonni uchratib, undan:

– Men yer haydadim-u, lekin dastyorni ko‘rganim yo‘q. Qani u? – deb so‘rabdi.

– Hozir keladi, lekin u g‘allani saqlash uchun o‘ra qazib qo‘yishingizni buyurdi, – deb javob beribdi olmaxon.

## 2

Tuya katta o‘ra qazibdi.

Fil g‘allani olib kelgach, olmaxonni ko‘ribdi-da:

– Men yerni haydadim, lekin dastyorni ko‘rganim yo‘q, qayerda uning o‘zi? – deb baqiribdi.

– Mana u, o‘rada, lekin g‘allani olib kelish uchun uzoq qolib ketganingga achchiqlanib o‘tiribdi, – deya pichirlabdi olmaxon.

Tuya allaqanday bahaybat hayvonni ko‘rib, yuragi chiqib ketayozibdi. O‘ra atrofidan shuvullab tuproqlar tusha boshlabdi.

– Filni ham vahima bosibdi, “O‘radagi qo‘rqinchli, bahaybat maxluq bo‘lsa kerak”, – deb, g‘allani tashlabdi-yu, orqa-oldiga qaramay o‘rmonga qochibdi.

Tuya ham o‘radan chiqibdi-yu juftakni rostlab qolibdi. Shunday qilib, tuya bilan fil qochib ketishibdi. Oqibatda o‘zlari yetishtirgan hosildan quruq qolishibdi.

1. Olmaxon to‘g‘ri ish qildimi?
2. Sizningcha, tuya bilan fil ishni qanday boshlashi kerak edi?

## BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

1. Rasmda nechta hayvon va nechta qush borligini aniqlang.

2. Rebusni hal qilsangiz, bo‘limdagi mavzulardan biriga taalluqli maqolni o‘qiysiz.

K + 3 – 1 + i/~~a~~ + da.

3. Qushlar va hayvonlar nima bilan oziqlanishini bilasizmi? Bolakay ularning yemishlarini almashtirib qo‘ydi. Unga xatosini to‘g‘rilashga yordam bering.

Ular qaysi ertak qahramonlari? Ertakni yodga oling.

4. Qushlar va hayvonlar haqidagi kros-svordni yeching.




1. Siz qanday qushlar va hayvonlarni bilasiz?
2. Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlardan qaysilarini bilasiz?
3. Qaysi qushlar qishda uchib ketmaydi?
4. Bo‘limdagi qaysi matn yoki she’r sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun?

# ERTAKLAR – YAXSHILIKKA YETAKLAR

## TANSIHATLIK – TUMAN BOYLIK

(O‘zbek xalq ertagi)

O‘tgan zamonda bir qashshoq yigit donishmand cholning oldiga kelib:

– Ota, yeyishga nonim, kiyishga kiyimim yo‘q, juda qiynaldim, nima qilishni bilmay qoldim. Endi qayerga borib dod desam ekan,– debdi. Chol:

– Sen kambag‘almisan? – desa, u:

– Ha, bola-chaqalarim va o‘zim ochman, kiyim-kechagimiz yo‘q, – deb zorlanibdi.

Chol:

– Xo‘p, bo‘lmasa, menga o‘ng qo‘lingni sot, necha pul beray, – desa, haligi yigit:

– Yo‘q, o‘ng qo‘lim o‘zimga kerak, sotmayman, – debdi. Shunda chol:

– Bo‘lmasa o‘ng ko‘zingni sot, – debdi.

– Nega men o‘ng ko‘zimni sotar ekanman, u menga doimo kerak, – debdi yigit.

Chol shu tarzda yigitning tana a’zolarini birma-bir sotgin, deb aytib chiqibdi. Yigit “Yo‘q” javobini qaytaravergach, chol unga:

– Ha, butun tanang sog‘ bo‘lsa, turmushdan zorlanib nima qilasan? Kishining tan-joni sog‘ligi – tuman boyligi-ku. “Sog‘ tanda sog‘lom aql”, deb bekorga aytilmagan. Sog‘ bo‘lsang hamma ish qo‘lingdan keladi, kuning o‘tadi, – deb javob beribdi.

1. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Inson yaxshi yashashi uchun nima qilishi kerak deb o‘ylaysiz?

“Sog‘ tanda sog‘lom aql” maqolining ma’nosini izohlang.

Mehnat qilsang, yasharsan,
Katta-katta osharsan.

## Ertak nima?

Ertaklar xalq tomonidan yaratilib, ular og‘izdan og‘izga ko‘chib yuradi. U ba’zan to‘qib aytiladi, ba’zan uydirmalarga asoslanadi. Ba’zida sehrli sarguzashtlar bo‘lishi mumkin. Ular kundalik turmush mazmuniga ham ega bo‘ladi.

# KENJA O‘G‘IL

## (O‘zbek xalq ertagi)

O‘tgan zamonda bir donishmand cholning uch o‘g‘li bo‘lgan ekan. O‘g‘illari voyaga yetgach, chol ularga bunday debdi:

– Bolalarim, men sizni yeyish-ichishdan kamsitmay o‘stirdim, har biringiz bir ro‘zg‘orning egasi bo‘lib qoldinglar. Endi otlaninglar, turli shaharlarga borib, qo‘rg‘on solib kelinglar!

To‘ng‘ich o‘g‘li Farg‘ona vodiysining hamma shaharlariga borib, u yerlarga bittadan uy solibdi.

O‘rtancha o‘g‘il Buxoro, Samarqand tomonlarga borib, qo‘rg‘onlar qurdiribdi.

Kenja o‘g‘ilning xotini oqila, dono ayol ekan. U eriga:

– Dadangiz turli shaharlarga qo‘rg‘on solinglar, deyishi bilan har bir shahardan do‘st orttiringlar demoqchi, – debdi.

Kenja o‘g‘il safarga chiqibdi. U qayerda bo‘lmasin, surishtirib, eng yaxshi, vafodor kishilarni topib, ular bilan do‘stlashibdi.

– Qani, kim qaysi shaharga qanday uy qurdi ekan? – debdi chol bir kuni. – Yuringlar, bir aylanib ko‘rib kelaylik.

U o‘g‘illari bilan birga katta o‘g‘il qurgan qo‘rg‘onlarga borsa, so‘rrayib uy-joyning o‘zi, odamsiz turgan emish.

O‘rtancha o‘g‘ilning qilgan ishlari ham xuddi akasinikiga o‘xshabdi.

– Bu qo‘rg‘onlarning odamlari qani? – so‘rabdi chol. To‘ng‘ich va o‘rtancha o‘g‘il unga javob bera olmabdi.

Hammalari kenja o‘g‘ilning yor-birodarlari yashaydigan yerlarga borishgan ekan, ularni izzat-hurmat bilan kutib olibdilar, ketma-ket ziyofatdan bo‘shamay qolibdilar. Shunda chol o‘g‘illariga qarab bunday degan ekan:

– Har bir shahardan orttirilgan do‘st u yerga bir qo‘rg‘on qurish bilan teng! Mening maqsadimni faqat kenja o‘g‘lim tushunibdi.

1. Ertak qahramonlaridan qaysi birining ishi sizga yoqdi?
2. Yana qaysi ertakda chol va uch o‘g‘il ishtirok etadi?
3. Ota nima uchun do‘st orttirishni qo‘rg‘on qurishga o‘xshatadi?

“Mening do‘stim” mavzusida og‘zaki hikoya tuzing.

Do‘sting bo‘lsa, bog‘ing chamandir.

Ko‘p qirrali to‘rtburchak,
Kerak bo‘lar uy qursak.

## ENG YAXSHI SOVG‘A

(O‘zbek xalq ertagi)

O‘tgan zamonda bir savdogarning uch qizi bo‘lgan ekan.

Bir kuni savdogar safarga jo‘namoqchi bo‘libdi va qizlarini chaqirib:

– Qizlarim, men Xitoy mamlakatiga safarga ketyapman. Xohlagan narsalaringizni ayting, u yerlardan olib kelay! – debdi.

Katta qizi bir shoda toza marvarid keltirishini so‘rabdi. O‘rtancha qizi eng chiroyli shoyilardan olib kelishini iltimos qilibdi.

– Senga nima olib kelay? – deb kenja qizidan so‘rabdi savdogar. Qizi:

– Otajon, o‘sha yerlarda yegan noningizning kuyuklarini bir xaltaga to‘plang, kelganingizda menga berasiz, – debdi.

Savdogar Xitoyda uzoq yurib, oldi-sotdi ishlarini tugatibdi va qizlari so‘ragan narsalarni olib, uyiga qaytibdi.

Savdogar uyiga yetib kelib, ikkala qiziga sovg‘alarni topshiribdi. U kenja qiziga bir xalta nonning kuyugini berib:

– Qizim, meni ko‘p uyaltirib qo‘yding-ku? – debdi.

– Otajon, – debdi kenja qizi, – men so‘ragan narsa opalarimnikidan qimmatliroq.

U mushugini chaqirib, non kuyuklarini yedira boshlabdi. Mushuk ularni yeb bo‘libdi-yu, og‘riqqa chidolmay tipirchilab qolibdi. Qiz:

– Otajon, ko‘rdingizmi, agar shu narsalarni siz o‘sha yoqda yurib yesangiz, biror ko‘ngilsiz voqea bo‘lar edi. Men uchun sizning sog‘ yurishingiz eng katta davlat emasmi?! – debdi.

Shundan keyin savdogar kenja qizining maslahati bilangina ish qiladigan bo‘libdi.

1. Nima uchun kenja qiz otasidan boshqa sovg‘a so‘ramadi?
2. Ertak qahramonlaridan qaysi biri sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun?

Ertak qahramonlarini sanab bering va ta’riflang.

Birni bersang otangga,
Mingni berar bolang senga.

# TULKI VA XO‘ROZ

## (Eron xalq ertagi)

Qadim zamonda bir xo‘roz bo‘lgan ekan. U bir kuni tulkiga duch kelib, chinorning ustiga chiqib olibdi.

Tulki chinorning tagiga kelib debdi:

– Ey xo‘roz, nega chinorga chiqib olding? Hali xabaring yo‘qmi?! Podsho: “Bundan buyon hamma jonivorlar do‘st bo‘lsin”, – deb farmon berdi. Kel, birga sayr qilamiz.

– Ko‘pchilik bo‘lsa yaxshi bo‘ladi. Biroz to‘xta, itlar yugurib kelyapti. Yetib kelishsa, birga sayr qilamiz, – debdi xo‘roz.

Tulki buni eshitib, qocha boshlabdi.

– Nega qochyapsan? – so‘rabdi xo‘roz.

– Chunki itlar shohning farmonini eshitmagan bo‘lishlari mumkin. Tag‘in meni burdalab tashlashmasin, – deb tulki orqasiga qaramay qochib ketibdi.

1. Xo‘roz tulkidan qanday qutulib qoldi?
2. Tulki nima uchun qochib ketdi?
3. Xo‘roz qaysi hayvonlar bilan do‘st bo‘lishi mumkin?

Hayvonlar haqida bilgan ertaklaringizni nomini aytib bering.



To‘rabek to‘rni to‘satdan tashladi.



# AQLLI BOLA

(O‘zbek xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir maqtanchoq podsho bo‘lgan ekan. Bu podsho, yurtda mendan boshqa aqlli odam yo‘q, deb yurar ekan. Bir kuni podsho ovga chiqibdi. Tushgacha ov qilib, hech narsa tutolmabdi. Yo‘lda bir bolani uchratibdi. Podsho bolaga qarab:

– Hoy bola, bizni mehmon qilmaysanmi? – debdi. Bola:

– Jonim bilan, – deya javob beribdi. Shunda podsho:

– Bizlarni nima so‘yib mehmon qilasan? – deb so‘rabdi. Bola:

– Topsak birni, topmasak ikkini so‘yamiz, – debdi. Podsho bolaning javobidan hayron bo‘libdi. Keyin vazirlariga:

– Bu bolaning gapida bir xosiyat bor, buni bir sinab ko‘ramiz, – debdi.

Podsho odamlari bilan bolaning uyiga boribdi. Bola podshoni, uning odamlarini yaxshilab mehmon qilibdi. Podsho boladan:

– Ey bola, sen nechta qo‘y so‘yding? – deb so‘rabdi. Shunda bola:

– Birni topmadik, shuning uchun ikkini so‘ydik, – deb javob qaytaribdi. Podsho yana taajjublanib:

– Birni topmasang, ikkini qayerdan topib so‘yding? – debdi.

– Bizning bir bo‘g‘oz sovlig‘imiz bor edi. Boshqa bir qo‘y topolmay, shu bo‘g‘oz qo‘yni so‘ydik. O‘zini so‘ygandan keyin, bolasi ham o‘ldi. Ikkini so‘ydik, deganning ma’nosi shu, – debdi bola.

Podsho buni eshitib, bolaning aqliga qoyil qolibdi. Keyin uni o‘z saroyiga olib ketibdi. Bu bola o‘qib dono bo‘libdi, ulg‘aygach podsho uni bosh vazir qilib tayinlabdi.

1. Podsho nega bolaning aqliga qoyil qolibdi?
2. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

1. Ertak qahramonlariga baho bering.
2. Reja tuzib, ertakni qayta hikoya qiling.

Aql yoshda emas, boshda.

Ergash Erkinga ergashdimi,
Erkin Ergashga ergashdimi?

Tunlari osmonga boq,
Mingta ko‘z, bari uyg‘oq. (Yulduzlar)

# SOMON, CHO‘G‘ VA LOVIYA

Aka-uka Grimmlar

## 1

Bor ekan-da yo‘q ekan, juda-juda qari, sakson yoshli kampir bo‘lgan ekan. Kampir polizga borib, bir lagan loviya teribdi va ularni pishirmoqchi bo‘libdi.

U pechkaga o‘t qalabdi, olov tuzukroq yonsin deb, bir siqim somon ham tashlabdi. Keyin esa loviyalarni qozonga solibdi.

Hamma voqea shundan boshlanibdi.

U loviyalarni qozonga solayotganda, bir dona loviya polga tushibdi. Tushibdi-yu, somonning yonida yotaveribdi.

Xuddi shu yerga, polga pechkadan bir dona cho‘g‘ sachrab tushibdi.

Shunda somon:

– Aziz do‘stlarim, sizlar bu yerga qayerdan kelib qoldingiz? – debdi.

– Men, – deb javob beribdi cho‘g‘, – pechkadan tushdim. Agarda u yerdan tushib ketmaganimda bormi, nobud bo‘lardim: yonib, kul bo‘lib, uqalanib ketardim.

Loviya bo‘lsa:

– Mening ham omadim kelib, shu yerga yiqilib tushdim. Bo‘lmasa, qolgan loviya

do‘stlarimdek shavla bo‘lib pishib, ezilib ketardim, – debdi.

– Men ham pechkaning ichiga tushmay, shu yerga tushganimdan xursandman, – debdi somon ham.

Shunday qilib, loviya, cho‘g‘ va somon birga sayohatga jo‘nashibdi.

## 2

Ular yurib-yurib, ariq bo‘yiga borishibdi. Ariq kichkina, ensiz ekan-u, lekin undan o‘tish uchun ko‘prik yo‘q ekan.

Somon o‘ylab turibdi-da:

– Mana bunday qilamiz: men ariqqa ko‘prik bo‘lib turaman, sizlar esa mening ustimdan o‘tib olasizlar, – debdi.

Somon ko‘prik bo‘lib turibdi. Uning ustidan avval cho‘g‘ yugurib ketibdi. O‘rtasigacha yugurib borganda, suvning shovullayotganini eshitibdi. U taqqa to‘xtab:

– Suvdan qo‘rqaman, suvdan qo‘rqaman! – deb baqiribdi.

U to‘xtab baqirayotganda, somon tutab, ikkiga bo‘linib, ariqqa tushib ketibdi. Cho‘g‘ ham suvga tushib ketibdi. Cho‘g‘: “Cho‘kyapman, qutqaringlar!” – deb pishillab cho‘kib ketibdi.

Loviya qirg‘oqda qolib, cho‘g‘ va somonning qilgan ishidan rosa kulibdi.

U kulaveribdi, kulaveribdi va kulgidan yorilib ketibdi. Baxtiga qirg‘oqda tikuvchi o‘tirgan ekan. Tikuvchi igna-ipini olibdi-da, loviyaning ikkala bo‘lagini bir qilib tikib qo‘yibdi. Tikuvchining yonida oq ipi bo‘lmagani uchun loviyani qora ip bilan tikib qo‘yibdi. O‘shandan beri hamma loviyalarning qoq o‘rtasida qora choki bor ekan.

1. Ertak qahramonlari qanday uchrashib qolishdi?
2. Nima uchun ularning sayohati qisqa bo‘ldi?
3. Do‘stlarining ayanchli ahvolidan kulganlarning holi qanday bo‘lar ekan?

Yaxshi bilan yursang,
Yetarsan murodga.

Asalari asalini ayiqdan ayamadi.

O‘zi juda hosildor,
Qornida qora xoli bor.
Yashil cho‘ziq uychada
Yotadi qator-qator.

## QARG‘A BILAN TULKI

(Masal)

Ivan Krilov

...Qarg‘a bir kun allaqaydan
Jindak pishloq topib oldi.
Qo‘noq tanlab qarag‘aydan,
Yemoqchiydi, o‘ylab qoldi.

Baxtga qarshi, o‘sha yerdan
O‘tib borar edi tulki.
Pishloq hidin sezib birdan
Joyida taq to‘xtadi-ku.

Qaraydiki – luqmayi pok
Turar qarg‘a tumshug‘ida.
Tulki, axir, azaldanoq
Mazaxo‘rak bunga juda.

Asta keldi daraxt tomon
Dum o‘ynatib u yon-bu yon.

Uzmay sira qarg‘adan ko‘z,
Tamshangancha boshladi so‘z:
“Aylanayin, do‘mboqqinam!
Qosh-u ko‘zi munchoqqinam!

Biram go‘zal pat-u boling,
Bo‘yinlaring, qaddi-doling.
Ta’rifingga so‘z yo‘q, netay,
Girgittoning bo‘lib ketay!..

Farishtadan a’lodirsan,
Kuylashda ham balodirsan?
Bir sayrab ber, qaroqqinam,
Tortinmasdan boshla, qani,
Qushlar shohi derlar seni!”

Bu maqtovdan bo‘lib shodmon
Qarg‘a: “Qag‘!” – deb og‘iz ochdi.
Pishloq yerga tushgan hamon
Ayyor tulki olib qochdi.

1. Tulki nima uchun qarg‘ani rosa maqtadi?
2. Qarg‘a nima uchun o‘ljasini yo‘qotdi?
3. Shoir bu masaldagi tulki va qarg‘ani qanday odamlarga o‘xshatadi?

Yaxshi do‘sting kuldirar,
Yomon do‘sting kuydirar.

Kuchugimga o‘xshaydi,
Lek xilvatda yashaydi.
Ayyorligin qo‘ymaydi,
Tovuqni yeb to‘ymaydi.

**Masal nima?**

Masal bu – kishilarga o‘git bo‘ladigan, xulosali kichik she’r yoki hikoya.

## HAKKA BILAN TULKI

(O‘zbek xalq ertagi)

Kunlarning birida Tulki ovqat izlab o‘rmon bo‘ylab daydib yurib, birdan Hakkani ko‘rib qolibdi. Ayyorlik qilib o‘zini o‘likka solishga qaror qilibdi. Hakka daraxtning shoxidan uchib kelib Tulkining ustiga qo‘nibdi. Tulkining chindan ham o‘lganligini tekshirib ko‘rish uchun asta cho‘qib ko‘ribdi. Tulki qimir etmay yotardi. Hakka tulkining boshiga qo‘nib, qulog‘ini cho‘qigach, o‘lganiga ishonch hosil qilish uchun tumshug‘ini ham cho‘qib ko‘rishni istabdi.

Hakka Tulkining tumshug‘iga yaqinlashay deganda ayyor Tulki qushning oyog‘idan

tutib olibdi. Hakka Tulkiga yolvorib, yig‘lay boshlabdi.

– Nega endi buncha yig‘laysan, mening Hakkajonim?! – debdi Tulki.

– Bolalik chog‘imda ota-onam mendan qattiq jahllari chiqqanda, seni Tulki tutib olsin, deb qarg‘ashar edi. Shunchaki tutib olmasdan, balki seni baland tog‘dan shunday tashlab yuborsinki, har bir tosh sening yonboshlaringni majruh qilib, Tulkiga xuddi urib ezilgan go‘shtday nasib etsin, deyishgandi. Ko‘ryapsanmi, o‘sha qarg‘ish amalga oshyapti, – javob beribdi ho‘ngragancha Hakka.

Hakkaning ota-onasi istagi Tulkiga ma’qul kelib, ularning xohishini amalga oshirishga qaror qilibdi. Keyin Tulki baland qoyaga ko‘tarilib, u yerdan Hakkani tashlab yuboribdi. Hakka zo‘r quvonch bilan qanotlarini yoyib, uchib ketibdi. Tulki esa og‘zini ochgancha qolaveribdi.

1. Hakka Tulkining tuzog‘iga qanday ilindi?
2. Hakka ayyor Tulkini qanday aldadi?
3. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
4. Tulki haqida yana qanday ertaklarni bilasiz?

Ertak qahramonlariga ta’rif bering.

Yonidan o‘tsa birov,
Bo‘ynini cho‘zib darrov,
Cho‘qiy, deb qilar hujum,
G‘a-g‘alaydi betinim.

## MUSHUK VA SICHQON

Habib Po‘latov

Sichqon o‘lja qidirib yurgan edi, bir burchakda yotgan mushukka ko‘zi tushib qoldi. Qochib qutulishning sira iloji yo‘q. Sichqon sir boy bermay, unga qarab tik boraverdi.

– Salom, Baroqpolvon, – dedi unga yaqin borib sichqon.

– Xo‘sh, Chiy-chiyvoy, nima qilib yurib-san? – dedi mushuk.

– Bir tovoq go‘sht bor, shunga xaridor qidirib yuribman.

– Xaridor biz. Evaziga nima so‘raysan?

– Bir qop yong‘oq.

– O‘zing ham juda noinsof ekansan. Bir tovoq go‘shtga bir tovoq yong‘oq-da.

– Bu mutlaqo insofdan emas. Yaxshisi, boshqa xaridor qidirganim ma’qul, – deb sichqon yo‘lga tushdi.

– To‘xta, muncha oshiqmasang, – dedi mushuk uning yo‘lini to‘sib. – Mayli, biroq yong‘oq pishganida beraman.

– Mayli, lafzingda tursang, bas, – dedi sichqon.

– Albatta, turaman, – dedi mushuk. Ammo: “Bu ahmoqni ertagayoq tutib yeyman”, – deb ko‘nglidan o‘tkazib qo‘ydi.

Sichqon mushukni orqasidan ergashtirib hujraga kirdi-da:

– Sen shu yerda kutib turgin, men hozir olib chiqaman, – deb kavakka kirib ketdi va qaytib chiqmadi.

Shundan beri mushuk qayerda kavak ko‘rsa, uzoq vaqt pisib yotib, sichqonni poylaydigan bo‘lib qoldi.

1. Mushukning boshqa ertaklardagi tulki bilan o‘xshash jihati bormi?
2. Sichqon mushukdan qutulish uchun qanday yo‘l tutdi?

Ertak qahramonlarining rasmini chizing.

To‘g‘ri yurdim – yetdim murodga,
Egri yurdim – qoldim uyatga.

Sardorning sayroqi sariq sa’vasi
subhidamda sayradi.

# BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

1. Har bir katakdan mos so‘zni to‘g‘ri tanlasangiz, shu bo‘lim nomi kelib chiqadi.

| | | | |
|---|---|---|---|
| Hikoyalar<br>Masallar<br>Ertaklar | — | yaxshilikka<br>do‘stlikka<br>inoqlikka | boshlar.<br>yetaklar.<br>yo‘llar. |

2. Sehrli olamga sayohat qilishni xohlaysizmi? Unda yo‘lga tushing. Sizga ertak qahramonlari yo‘l ko‘rsatishadi. Krossvordni to‘g‘ri hal qilsangiz, boradigan manzilingiz nomi kelib chiqadi.



3. Quyida berilgan so‘zlarga harflarni to‘g‘ri qo‘shib-ayirsangiz, maqol hosil bo‘ladi. Masalan, “ishtaha” so‘zini hosil qilish uchun quyidagicha yo‘l tutish mumkin:

**TISH – T + TANA – NA + HA = ISHTAHA**

**TISH – T =**
**TISH – T + TANA–NA + HA =**
**QOCH – Q + ARI – I =**

1. Bo‘limdagi qaysi ertak yoki masal sizga yoqdi?
2. “Kenja o‘g‘il” va “Eng yaxshi sovg‘a” nomli ertaklar qahramonlari nimasi bilan o‘xshash?
3. Hayvonlar haqida yana qanday ertaklarni bilasiz?

1. Bo‘limda o‘qigan ertaklaringizdagi ijobiy va salbiy qahramonlarni sanab bering.
2. Bo‘limdagi o‘rganilgan ertak qahramonlaridan birining rasmini chizing.
3. Mustaqil o‘qigan ertak kitoblaringiz nomlarini yozing.

# TABIATNI ASRANG, AVAYLANG

## YOMG‘IR

O‘roq Saidov

– Yomg‘ir, yomg‘ir, yomg‘irjon,
Behisob yoqut marjon.
Shitirlab ne so‘zlaysan,
Qay manzilni ko‘zlaysan?

– Orzum: bog‘lar yashnasin,
Uchib-qo‘nsin kapalak.
To‘qlikka nishon bo‘lib,
Tovlansin yoy-kamalak.

Qo‘y-qo‘zilar o‘tloqda
Suzishib yursin, mayli.
Tulpor otlar kishnasin
Barra o‘tim tufayli.

Shularni o‘ylab ko‘kdan
Yer yuziga enaman.
Rizq-u ro‘z ulashuvchi,
Bilsang, g‘amxo‘r onaman!

1. She’r nima haqida?
2. She’r kimning nomidan aytilgan?
3. Yomg‘ir tabiatga qanday ta’sir qilar ekan?

She’rning oxirgi bandini o‘qib, mazmunini tushuntiring.

Bu yoz Niyoz ekdi piyoz.

Oqib kelar shildirab,
Oynadayin yaltirab. (ʌnS)

## ZILOL SUV

G‘ani Abdullayev

**1**

Oyim nonushtadan so‘ng:

– Dadang bog‘ aylanib, keraksiz narsalarga ko‘zi tushganmi: “O‘g‘lingga ayt, yo‘qotsin ularni”, – deb ishga ketdi, – dedi.

– Xo‘p, yo‘qotaman, – deb oyimni xotirjam qildim. “Lash-lushlar”ni axlat mashinasi olib ketadigan joyga tashishga erindim. Anhor yaqin. Shundoqqina bog‘imiz etagiga tutash.

Mana, qo‘limda opamning eski shippagi. Bir, ikki, uch! Anhorga g‘irillatdim. Bunisi botinka, “jag‘i” ochilib qolibdi. G‘irillatdim. Suvning bag‘ri keng. Qo‘limdan uchgan

narsa borki, ishimni yengillatib, bag‘riga yashiraveradi. Eh, bo‘yoq bankasiga kelganda... Tepib yuborgandim, suvga yetmay, anhor bo‘yidagi chinorga qattiq urildi-yu, pachoqlandi.

– Nima taraqlab ketdi, tinchlikmi, Tohir? – xavotirlanib ayvondan tushib keldi oyim.

– Tinchlik... Shunday, o‘zim...

Oyim atrofga qaradi. Hozirgina bog‘ni xira qilib turgan “lash-lush”lar yo‘q. Faqat chinor tagida bankacha qopti, xolos.

– “Tashvish”dan osongina qutulibsan-da.

Men dadil javob berdim:

– Faqat menmi, oyijon? Boshqalar ham anhorga duch kelgan narsani otishadi-ku!

– Birov o‘zini tomdan tashlasa, sen ham tashlayverasanmi? Dadang bilsami, naq ko‘rsatadi...

– Dadamga aytmang, jo-o-on oyi.

– Xo‘p, ammo boshqa bunaqa ish qilma.

## 2

Ta’tilga chiqqach, tog‘da yashaydigan opamnikiga bordim. Toshdan toshga urilib, tog‘dan tip-tiniq suv tushyapti.

Opamning kichik qaynisi Asad bilan cho‘milib, oftobda yonboshlab yotardik.

– Qani, menga yetib ol-chi, – Asad shunday deb o‘rnidan turdi-da, ilonizi yo‘ldan chopa ketdi.

Ketidan quvdim. Yarim yo‘lga bormasdanoq hars-hars qilaman. Yana chopsam, ko‘zim tinadigan. “Sharmanda bo‘lmay yana...” Sekin orqaga qaytdim.

– Ha, Tohir akavoy, qalaysiz? – mazax qila boshladi Asad, balandlikdagi tosh ustiga o‘tirvolib.

Nima ham derdim. Jilg‘aga boshlab kelgan opam esa ko‘nglimni ko‘tardi:

– Tog‘ning zilol suvi Asadga tuganmas kuch bergan. Sen ham uning o‘rnida

bo‘lganingda, chiniqib, “pisharding”. Boya, oh, oh, muncha maza, deb hovuchlab suv ichishingni ko‘rib, biram quvondimki...

– Agar suvga hech kim hech narsa tashlamasa, bizning anhordan ham tiptiniq, toza suv oqadimi, opa?

– Bo‘lmasam-chi, Tohirvoy. O‘sha suvning boshi shu. Qara, qanday toza, a, – jilg‘aga ishora qildi opam.

Jilg‘aga boqib, anhorga “lash-lush”larni otganlarim ko‘z o‘ngimga keldi. “Shundoq zilol suvni iflos qilsak... Bu ishimiz juda yomon bo‘lar ekan”.

1. Hikoya qahramonlarini nomma-nom ayting.
2. Siz Tohirning o‘rnida bo‘lsangiz, nima qilar edingiz?
3. Suvni asrash uchun nima qilish kerak?

Suv haqida bilgan she’r va maqollaringizni aytib bering.

Suv keldi – nur keldi.

Kelar baland tog‘lardan,
Juda ham yiroqlardan.
Giyoh bitmas bepoyon
Sahrolarga berar jon.

(Suv)

## YERSHUNOS BO‘LAMAN

Qambar Ota

Men yershunos bo‘laman,
Tekshiraman Yer sharin.
Bir kun aytib beraman
Uning hamma dardlarin.

Mehribon onam deya,
Bag‘riga qo‘l solaman.
Bir kichik farzand bo‘lib,
Ko‘ngillarin olaman.

Istagim: Yer qadriga
Yetmagan zot qolmasin.
Biz uni e’zozlaylik,
Yerimiz hech tolmasin.

Baxtimiz garovidir
Tuproqning har zarrasi.
Yo‘latmaylik Yerga g‘am,
Bo‘lmasin hech yarasi.

Men yershunos bo‘laman,
Tekshiraman Yer sharin.
Qanday yaxshi, biz Yerning
Tuzatolsak dardlarin.

1. She’r kimning nomidan aytilgan?
2. Yer nega onaga qiyoslanadi?
3. Siz tevarak-atrofingiz tozaligi uchun nima qila olasiz?

Ona yerning tuprog‘i – ona sutiday aziz.

Novvoy non yopar,
Nonni novvot deb sotar.

Zar gilam, zar-zar gilam,
Ko‘taray desam, og‘ir gilam. (Yer)

## BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

1. Bo‘sh doirachalarga sharlardagi harflarni iplari orqali topib joylashtiring. Shunda yer va suv haqidagi hikmatli gapni o‘qiysiz.



2. Rebusni hal qilsangiz, bo‘limga doir maqol hosil bo‘ladi.

1 j+ +da k ~~z~~+ ~~i~~+ ~~i~~.

3. Suratdagi o‘rni almashib ketgan soat raqamlarini o‘z o‘rniga qo‘ysangiz, yonidagi harflardan darslikdagi ertaklardan biri-ning mazmuniga mos gap kelib chiqadi.

Ertak nima haqida edi? Uning nomini eslang.



1. Yomg‘ir tabiatga qanday ta’sir qiladi?
2. Suvning tozaligini asrash uchun nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?
3. Nega Yer onaga tenglashtiriladi?

1. Tabiatni asrashning ahamiyatini ayting.
2. O‘rganganlaringiz asosida tabiatni asrashga doir hikoya yozing.

# YOZ – O‘TADI SOZ

## YOZ KELDI

Qambar Ota

Yoz keldi-yu yoz keldi,
Kunlar nurli, soz keldi.
Quyosh jilmayib boqar,
Yuragidan o‘t yoqar.

Olam sirli doshqozon...
Daraxt, ko‘chatlar larzon.
Egilib turar bazo‘r,
Har yig‘ilgan hosil zo‘r!

Salqin bedapoyaga,
Ko‘rpacha sol soyaga.
Yoz yozadi dasturxon:
“Huzur qilsin har bir jon!”

1. She’r qaysi fasl haqida?
2. Shoir yoz faslida tabiatda bo‘ladigan o‘zgarishlarni qanday ta’riflaydi?

1. Yozda pishadigan mevalarni ayting.

2. Ulardan birining rasmini chizing.
3. Quyidagi reja asosida hikoya yozing:
   1) Bizning bog‘da.
   2) Mevalar terdik.
   3) Bobom va buvim xursand bo‘ldilar.

Yoz mevasi – qish xazinasi.

Pirpirak pirillaydi,
Chirildoq chirillaydi.

## TABIATNING NE’MATI KO‘P

(O‘zbek xalq ertagi)

Bor ekan-da yo‘q ekan, bir eshak bo‘lgan ekan. U o‘zini juda aqlli deb bilar ekan. Kunlarning birida u bog‘ga kiribdi. Qarasa, daraxtlarda mevalar, polizda qovoqlar pishib yotgan emish. Eshak daraxtlardagi mevalarga, polizdagi qovoqlarga qarab diqqat bo‘libdi. Shalpang quloqlarini qimirlatib:

– Tabiatning hamma ishi yaxshi, lekin ba’zi narsalarni boshqacharoq yaratishi kerak edi-da, – debdi.

Shunda daraxt shoxida o‘tirgan chumchuq:

– Qani, ayt-chi, senga bularning nimasi yoqmadi? – deb so‘rabdi.

– Ko‘rmaysanmi? – debdi eshak olma va qovoqlarga imo qilib. – Shunday katta daraxtning solgan mevasini qara, bola mushtidan ham kichik. Endi anavi qovoqlarni ko‘r, kallamday keladi.

– Bor hikmat shunda-da, – debdi chumchuq.

– Bunda hikmat nima qilsin? Olmalar qovoqdek, qovoqlar olmadek bo‘lsa, tuzuk bo‘lardi-da, – debdi eshak.



Shunday deb eshak olma daraxtiga surkangan ekan, bitta olma uzilib, “tap” etib boshiga tushibdi.

– Voy, boshim yorilayozdi-ku, – debdi eshak boshini ushlab.

– Yaxshiyamki olma qovoqdek emas, bo‘lmasa miyang-

ning qatig‘ini chiqarib yuborardi, – debdi chumchuq kulib.

– Rost aytding, og‘ayni! – debdi eshak va olma daraxti tagidan nari ketibdi.

1. Ertakdagi voqea qaysi faslda va qayerda sodir bo‘lgan?
2. Ertakni o‘qib qanday xulosaga keldingiz?

Ertak qahramonlarini sanab bering.

Aqlliga – hurmat, aqlsizga – kaltak.

Quyon emas,
Uzun quloq.
Ot emas,
To‘rtta tuyoq.

## YOZNING ZIYNATI

Aziz Abdurazzoq

Qaldirg‘ochlar keldilar,
Qo‘shiq aytib, vijirlab.
Simga qo‘nib kuldilar
Bolalarday bijirlab.

Kiyimlari oq, qora,
Ipak kabi mayindir.
Ko‘zlari sho‘x, qop-qora,
Mo‘ljallari tayindir.

Mo‘ljallari – loy makon
Tez qurilib bitadi.
Ichidan duv palapon
Uchib chiqib ketadi.

Bu ham yozning xizmati,
Yozimiz qushlarga boy.
Qush ham yozning ziynati,
Bag‘ishlar yozga chiroy.

She’r qaysi fasl va qush haqida?

She’rdan qaldirg‘och tasvirlangan misralarni topib o‘qing va rasmini chizing.

Yozgi harakat – kuzgi barakat.

To‘kinlikda noz-ne’mat,
Qaysi fasl, ayt, Hikmat? (zo人)

## QALDIRG‘OCH BILAN BESHIKTERVATAR

(Ertak)

Oltmish O‘sarov

1

Yozda bor ekan, qishda yo‘q ekan, bir qaldirg‘och bo‘lgan ekan. U qishda issiq mamlakatlarga uchib ketar ekan-da, bahorda yana qaytib kelarkan. Tumshug‘ida loy tashib in qurarkan. Tuxum qo‘yib, bola

ocharkan. Hech kim uning uyini buzmas, bolalariga teginmas ekan.

Bir kuni qaldirg‘och o‘rik shoxiga qo‘nib, yemish axtarayotgan paytda, oyoqlari uzun, yashil ko‘ylakli bir hasharotga ko‘zi tushibdi. U qaldirg‘ochga qarab, hadeb tebranar emish.

– Kimsan? Nima ish qilasan? – deb so‘rabdi qaldirg‘och uni tanimay.

– Beshiktervatarman. Odamlarni chaqadigan chivin, qora pashshalarni tutib yeyman.

– Sen ham odamlarga ziyon keltirmas ekansan, – jilmayib vijirlabdi qaldirg‘och. – Kel, ikkalamiz do‘st bo‘laylik.

– Juda yaxshi, – debdi beshiktervatar.

Ikkalasi ahil o‘rtoq bo‘lib, inoq yashay boshlashibdi.

2

Bir kuni qaldirg‘och palaponlariga ovqat olib kelsa, ular qiy-chuvlashayotgan emish. “Bolalarimga nima bo‘ldi?” – deya iniga yaqinlashib qarasa, bir ilon kenjatoyini yutayotgan emish. Qaldirg‘och bor ovozi bilan: “Bolalarimdan ajralib qolyapman, yordam bering!”– deb qichqiribdi. Chumchuqlar chirillab, hakkalar qag‘illashibdi. Biroq

yordamga kelishmabdi. Shunda u beshiktervatar oldiga shamoldek uchib kelib, voqeani aytibdi.

– Tezroq meni tishlab, uyingga olib bor, – debdi beshiktervatar.

Qaldirg‘och o‘rtog‘ining belidan tishlab, yana shamoldek uchib, inining oldiga olib kelibdi. Ilon zaharli tillarini cho‘zgancha, ikkinchi bolasiga hamla qilayotgan ekan. Birdan ko‘zi beshiktervatarga tushibdi-yu, qotib qolibdi. Beshiktervatar chang solib, ilonning o‘ng ko‘zini o‘yib olibdi. Ilon g‘azablanib, to‘lg‘anib, beshiktervatarni dumi bilan urmoqchi ekan, bo‘lmabdi. Beshiktervatar sapchib, ilonning ikkinchi ko‘zini ham o‘yib olibdi. Ilon shilq etib yerga tushibdi. Og‘zini katta-katta ochib, jon beribdi.

Ona qaldirg‘och beshiktervatardan juda xursand bo‘libdi. Shundan beri ularning do‘stligi buzilmas emish.

1. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Haqiqiy do‘st qanday bo‘lishi kerak?

1. Ertak qahramonlarini ta’riflang.
2. Matnning qismlariga sarlavha qo‘ying.

Do‘stingga do‘st bo‘l,
Dushmaningga ziyrak.

# A’LO O‘QIDINGIZ, A’LO DAM OLING!

Ilyos Muslim

Shifoli nur sochib, oltin yoz keldi,
Boshlandi har yoqqa sayr-sayohat.
O‘lkamiz ko‘rkini qutlab yoz keldi,
Qizir oromgohda shod istirohat.

Kuzda, qishda, bahorda qunt-la o‘qib,
Yana bir dovonni oshdi bolalar.
Ularning quvonchli qo‘shig‘in o‘qib,
Yozdi keng quchog‘in gulzor, dalalar.

Dunyoda eng baxtli, ey o‘g‘il-qizlar,
Xushhavo joylarda kuzgacha qoling.
Sizlarni kuzatdik oromga bizlar,
A’lo o‘qidingiz, a’lo dam oling!

1. Shoir she’rda sizga nima deyapti? Nima uchun?
2. Siz yozgi ta’til davomida nima qilasiz?

Yaxshi dam – mehnatga hamdam.

Chovli simdan, chovgum misdan.

Tepdim, tepdim,
Terakka chiqdim.

## BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

1. Rasmni diqqat bilan kuzatsangiz, shu bo‘limdagi qahramonlaringizni topasiz.

Rasmdagi qahramonlar ishtirokida hikoya tuzing.

2. Bolalarning manzilga yetib olishiga yordam bering. Meva nomlarini krossvordga tushiring va kerakli manzilni bilib oling.




1. Bo‘limni o‘rganish davomida qanday yangi ma’lumotlarni bilib oldingiz?
2. Beshiktervatar va ilon do‘st bo‘ladimi?

O‘rganganlaringiz asosida reja tuzib, “Yoz” mavzusida hikoya yozing.

# LUG‘AT

**A**

Ardoq – izzat-hurmat, e’zoz-e’tibor

**B**

Bahra – huzur, rohat

**E**

Ezgulik – xayrli, ezgu ish

**F**

Fayz – jozibadorlik, yoqimlilik

**G**

Gulshan – gulzor, chamanzor

**H**

Hur – ozod, erkin

**I**

Istiqbol – baxtli kelajak
Istiqlol – mustaqillik, erkinlik, ozodlik, hurlik

**K**

Karomat – oldindan aytish
Kuzak – kuzning dastlabki kunlari

**L**

Larzon – og‘irlikdan egilib turish
Lolagun – lola kabi qip-qizil
Lutf – marhamat, oliyjanoblik

**M**

Mavqe – inson darajasi; martaba
Ma’sum – begunoh, pok

**N**

Notiq – nutq so‘zlovchi, gapga usta

## O

Ostona – eshikning ostki qismi, uyga kiraverish joyi

## P

Pigment – lotincha so‘z bo‘lib, bo‘yoq ma’nosini bildiradi. Pigmentlar organizm to‘qimalari tarkibiga kirib, quyosh ta’sirida o‘z rangini o‘zgartiradi

Piyma – jundan bosib tayyorlangan oyoq kiyimi

## Q

Qo‘noq – qushlar qo‘nadigan joy; mehmon

Qo‘rir – qo‘riqlamoq

## S

Sambit – tol daraxtining bir turi

Sarv — tik o‘sadigan, doim yashil daraxt

## T

Taqvim – kun, oy, yilning joylashish tartibi

Tashi – tashqarisi, sirti

Tuyg‘un – tez sezib oladigan, sezgir

Tug‘yon – ichki tuyg‘ular toshqini

## U

Ufq – yer va osmon tutashgan bo‘lib ko‘rinadigan joy

## V

Vujud – borliq, insonning gavdasi, bor jismi

## Z

Zarqanot – qanotlari tillarang

## Sh

Sharaf – shuhrat, faxr

Shijoat – jasurlik, dadillik

# MUNDARIJA

## ONA YURTIM – OLTIN BESHIGIM

Vatanjonim, vatanim (Po‘lat Mo‘min) ..... 3
Vatan (Bolalar ensiklopediyasidan) ..... 4
Toshkent – O‘zbekiston poytaxti ..... 6
Biz vatanning ertasi (Muqim Qodir) ..... 8
Tandir (Rivoyat) ..... 9
Ozod Vatan – obod Vatan
(Normurod Narzullayev) ..... 13
Ma’naviyatli xalqni yengib bo‘lmaydi (Rivoyat) ..... 14
Bolajon hayajoni (Miraziz A’zam) ..... 16
“Afrosiyob” – tezyurar poyezd (Erkin Malik) ..... 18
O‘zbekistonim (Anvar Obidjon) ..... 20
Suv oqsin Orolga (G‘ani Abdullayev) ..... 21
She’rim senga, Vatanim (Quddus Muhammadiy) ... 23
Ajoyib bahs (Hidoyat Olimova) ..... 24
Vaqtning hajmi qancha? (Hamza Imonberdiyev) .... 27
Bo‘lim yuzasidan takrorlash ..... 29

## MAKTABIM – QUTLUG‘ MAKONIM, KITOBIM – OFTOBIM

Maktab (Umida Abduazimova) ..... 31
Ilm (Abdulla Avloniy) ..... 33
Uyg‘on (Mirtemir) ..... 34
Mukofot (Ne’mat Toshpo‘lat) ..... 36
Ona tilim (Vafo Fayzulloh) ..... 38
Sayoq bola (Rauf Tolib) ..... 39
Yodlasam bo‘lmasmidi? (Kavsar Turdiyeva) ..... 42
Ilk saboq (Raim Farhodiy) ..... 44
Eng yaqin do‘stimiz (Hakim Nazir) ..... 45
Bo‘lim yuzasidan takrorlash ..... 47

## OLTIN KUZ – HOSILING YUZ

Oltin kuz (Tursunboy Adashboyev) ..... 49
Kuz (Qutlibeka Rahimboyeva) ..... 50
Kuz fasli (Eson Rahimov) ..... 52
Barglar nega sarg‘ayadi?
(Muhabbat O‘rinboy qizi) ..... 53
Bo‘lim yuzasidan takrorlash ..... 57

## MEHNAT BAXT KELTIRAR

Odam bo‘laman (Anvar Obidjon) ..... 58
Keksa kulol va shogird (Qudrat Hikmat) ..... 60
Hunar – bebaho boylik (Ollobergan Po‘lat) ..... 62
Mening do‘stim Kompyusha (Alisa Lavruxina) ..... 63
Non aziz (Obid Rasul) ..... 65
Uch o‘g‘il (Ertak) ..... 66
Bo‘lim yuzasidan takrorlash ..... 69

## KUMUSH QISH – MISOLI OQQUSH

Qish (Ilyos Muslim) ..... 71
Qishning o‘rtog‘i (Zahro Hasanova) ..... 72
Qorqiz (Anvar Obidjon) ..... 74
Ayrilganni... (Latif Mahmudov) ..... 75
Qor (Zafar Diyor) ..... 77
Tog‘ malikasi (Zahro Hasanova) ..... 78
Qorning ko‘p xosiyati bor (Ilyos Muslim) ..... 80
Laylakqor (Qutbi Nosirova) ..... 81
Chilla chiqib (Tursunboy Adashboyev) ..... 82
Vatan – mehr qo‘rg‘oni (Iskandar Rahmon) ..... 83
Bo‘lim yuzasidan takrorlash ..... 85

## OTALAR SO‘ZI – AQLNING KO‘ZI

Tilingni avayla — omondir boshing
(Yusuf Xos Hojib) ..... 86

Ibn Sinoning bolaligi (Maqsud Qoriyev) ..... 87
Amir Temur haqida hikoya (Bo‘riboy Ahmedov) ... 89
Non – ulug‘ ne’mat (Rivoyat) ..... 91
Nima eksang, shuni o‘rasan (Shorasul Zunnun) ... 93
Ta’zir (Xudoyberdi To‘xtaboyev) ..... 95
Mehmon keldi (Aziz Abdurazzoq) ..... 97
Kichkina Alisher (Zamira Ibrohimova) ..... 100
Alisher Navoiy (Xurshid Davron) ..... 102
Bo‘lim yuzasidan takrorlash ..... 103

## ZUMRAD BAHOR – BAHRIDILING OCHAR

Bahor keldi (Aziz Abdurazzoq) ..... 105
Boburning fazilatlari (G. H. Pant) ..... 106
Ko‘klam sep yoydi (Do‘stjon Matjon) ..... 108
Bir tup sada (Mahmud Murodov) ..... 109
Gunafsha (Qudrat Hikmat) ..... 111
Tanbeh (Latifjon Mansurov) ..... 112
Momaqaymoq (Quddus Muhammadiy) ..... 114
Karim chumolining tilini bilarkan
(Hamid Jalolov) ..... 115
Alisherning onasi (Abdulla Oripov) ..... 117
Onam (Umarali Qurbonov) ..... 118
Navro‘z – tabiat tantanasi ..... 119
Polvonman (Qambar Ota) ..... 121
Qaldirg‘och (To‘lan Nizom) ..... 122
Bo‘lim yuzasidan takrorlash ..... 123

## QUSHLAR, HAYVONLAR – BIZNING DO‘STIMIZ

Bulbuljonim kuylasin (Quddus Muhammadiy) .....125
Chumchuq bola (O‘ktam Usmonov) .....126
Tuya, fil va olmaxon (Ertak) .....128
Bo‘lim yuzasidan takrorlash .....130

## ERTAKLAR – YAXSHILIKKA YETAKLAR

Tansihatlik – tuman boylik
(O‘zbek xalq ertagi) .....132
Kenja o‘g‘il (O‘zbek xalq ertagi).....134
Eng yaxshi sovg‘a (O‘zbek xalq ertagi).....136
Tulki va xo‘roz (Eron xalq ertagi).....138
Aqlli bola (O‘zbek xalq ertagi).....139
Somon, cho‘g‘ va loviya (Aka-uka Grimmlar).....141
Qarg‘a bilan tulki (Ivan Krilov) .....144
Hakka bilan tulki (O‘zbek xalq ertagi).....146
Mushuk va sichqon (Habib Po‘latov).....148
Bo‘lim yuzasidan takrorlash.....150

## TABIATNI ASRANG, AVAYLANG

Yomg‘ir (O‘roq Saidov) .....152
Zilol suv (G‘ani Abdullayev).....153
Yershunos bo‘laman (Qambar Ota).....157
Bo‘lim yuzasidan takrorlash.....158

## YOZ – O‘TADI SOZ

Yoz keldi (Qambar Ota).....160
Tabiatning ne’mati ko‘p (O‘zbek xalq ertagi) .....161
Yozning ziynati (Aziz Abdurazzoq).....163
Qaldirg‘och bilan beshiktervatar (Ertak)
(Oltmish O‘sarov).....164
A’lo o‘qidingiz, a’lo dam oling!
(Ilyos Muslim).....167
Bo‘lim yuzasidan takrorlash.....168
Lug‘at .....169

*O‘quv nashri*

G‘AFFOROVA TAL’AT, NURULLAYEVA SHAHLO,
MIRZAHAKIMOVA ZEBINISO

**O‘QISH KITOBI**

To‘rtinchi nashr

*Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining*
*2-sinfi uchun darslik*

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2018

Rassomlar:
*Umid Sulaymonov, Zarnigor Shomahmudova,*
*Dilnoza Mahmudova, Faxriddin Sultonov,*
*San’at Iliusinov, Abilxayirova Shirin*

Muharrir *Eldor Bozorov*
Badiiy muharrir *Feruza Basharova*
Sahifalovchi *Mastura Atxamova*
Musahhihlar: *M. Ziyamuhamedova, Sh. Xurramova*

**Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011-y.**

Bosishga ruxsat etildi 06.03.2018. Bichimi 70x90 1/16.
“Pragmatica” garniturasi. Kegli 16; 14 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 12,87. Nashriyot-hisob tabog‘i 12,51.
Adadi 490375 nusxa. 110-sonli buyurtma.

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,**
**100000, Toshkent shahri, “Buyuk Turon” ko‘chasi, 41-uy.**

## Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

| T/r | O‘quvchining ismi, familiyasi | O‘quv yili | Darslikning olingandagi holati | Sinf rahbarining imzosi | Darslikning topshirilgan-dagi holati | Sinf rahbarining imzosi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | | | |
| 2 | | | | | | |
| 3 | | | | | | |
| 4 | | | | | | |
| 5 | | | | | | |
| 6 | | | | | | |
| 7 | | | | | | |
| 8 | | | | | | |

**Darslik ijaraga berilganda va o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:**

| | |
|---|---|
| Yangi | Darslikning foydalanishga birinchi marotaba berilgandagi holati. |
| Yaxshi | Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, bet-larida yozuv va chiziqlar yo‘q. |
| Qoniqarli | Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydala-nuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan. |
| Qoniqarsiz | Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan, darslikni tiklab bo‘lmaydi. |

*O‘quv nashri*

G‘AFFOROVA TAL’AT, NURULLAYEVA SHAHLO,
MIRZAHAKIMOVA ZEBINISO

**O‘QISH KITOBI**

To‘rtinchi nashr

*Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining*
*2-sinfi uchun darslik*

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2018

Rassomlar:
*Umid Sulaymonov, Zarnigor Shomahmudova,*
*Dilnoza Mahmudova,*
*Faxriddin Sultonov, San’at Iliusinov*

Muharrir *Eldor Bozorov*
Badiiy muharrir *Feruza Basharova*
Sahifalovchi *Mastura Atxamova*
Musahhihlar: *M. Ziyamuhamedova, Sh. Xurramova*

**Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011-y.**

Bosishga ruxsat etildi 06.03.2018. Bichimi 70x90 1/16.
“Pragmatica” garniturasi. Kegli 16; 14 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 12,87. Nashriyot-hisob tabog‘i 12,51.
Adadi 61071 nusxa. 110A-sonli buyurtma.

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,**
**100000, Toshkent shahri, “Buyuk Turon” ko‘chasi, 41-uy.**